


O‘ZBEKISTON – XITOIY: IKKI TOMONLAMA ALOQALAR SEZILARLI FAOLLASHGANI QAYD ETILDI

17-iyun kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin muzokara o‘tkazdi.



Ikki tomonlama va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar ko‘rib chiqildi.

Davlat rahbarlari keyingi yillarda O‘zbekiston bilan Xitoy o‘rtasidagi do‘stlik va barcha sharoitlarda har tomonlama strategik sheriklik munosabatlari misli ko‘rilmagan yuksak darajaga ko‘tarilganini katta mamnuniyat bilan qayd etdilar.

O‘zbekiston Prezidentining 2024-yil yanvar oyida Xitoyga davlat tashrifi davomida erishilgan kelishuvlar izchil amalga oshirilmog‘da.

Barcha darajalarda aloqalar va almashinuvlar sezilarli faollashgani qayd etildi.

Tashqi ishlar vazirlarining strategik muloqoti yo‘lga qo‘yildi. Joriy yil iyun oyi boshida Samarqand shahrida ikkinchi Hududlar forumi muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

Savdo-iqtisodiy va moliyaviy-investitsion hamkorlik jadal rivojlanmog‘da. 2024-yilda tovar ayirboshlash 14 milliard dollarga yetdi. Investitsiya loyiholari portfeli 60 milliard dollardan ziyodni tashkil etmog‘da.

Mamlakatimiz hududlarida qo‘shma texnoparklar va maxsus industrial zonalar muvaffaqiyatli faoliyat yuritmog‘da,

“BYD” elektromobillarini ishlab chiqarish kengaymog‘da.

“Yashil” energetika, neft-gaz, kimyo, farmatsevtika, metallurgiya, tog‘-kon, to‘qimachilik, oziq-ovqat va qurilish tarmoqlarida hamda logistika, “aqlii” qishloq xo‘jaligi, sun‘iy intellekt va raqamlashtirish sohalarida istiqbolli loyihalar ishlab chiqilmog‘da.

Xitoyning yetakchi moliya institutlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. “Ipak yo‘li” jamg‘armasi bilan investitsiya platformasini kengaytirish rejalashtirilgan. Xitoy Eksimbanki ishtirokida poytaxtimizda Olimpiya shaharchasi qurilishi yakunlanmog‘da. Toshkent shahrida ushbu bankning mintaqaviy filiali ochildi.

Kambag‘allikka qarshi kurashish sohasidagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

Yetakchilar “Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” strategik temir yo‘li qurilishini jadallashtirish muhimligini ham qayd etdilar.

Ta‘lim, fan, turizm va madaniyat, kadrlar tayyorlash va xitoy tilini

o‘rganish sohalaridagi almashinuvlarni rivojlantirishdan manfaatdorlik bildirildi.

O‘zbekistonda Xitoyning Shimoli-g‘arbiy qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi universitetining filiali faoliyat ko‘rsatmog‘da, Urganch universiteti negizida Pekin universiteti bilan hamkorlikda Xalqaro matematika markazi tashkil etilgan.

O‘tgan yili Konfutsiy instituti faoliyatining 20 yilligi nishonlandi, Xitoyning “Lu Ban ustaxonasi” professional ta‘lim tizimi joriy etilmog‘da.

Kelgusi yilda ikki mamlakatda madaniyat va san‘at haftaliklarini o‘tkazish rejalashtirilgan.

Uchrashuvda xalqaro kun tartibi yuzasidan ham fikr almashildi. BMT, SHHT, “Markaziy Osiyo — Xitoy” formati va boshqa ko‘p tomonlama tuzilmalar doirasidagi muvofiqlashuv va o‘zaro qo‘llab-quvvatlashni davom ettirish muhimligi qayd etildi.

Yakunda yetakchilar huzurida O‘zbekistonning JSTga a‘zo bo‘lishi bo‘yicha ikki tomonlama muzokaralar yakunlangani to‘g‘risida bayonnoma imzolangani e‘lon qilindi.

O‘ZA

MARKAZIY OSIYO VA XITOIY O‘RTASIDA USHBU FORMATDAGI HAMKORLIK DOLZARB AHAMIYAT KASB ETMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 17-iyun kuni Ostona shahrida “Markaziy Osiyo — Xitoy” ikkinchi sammitida ishtirok etdi.

Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev raisligida o‘tgan tadbirda Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov ham qatnashdi.

Kun tartibiga muvofiq, Markaziy Osiyo mamlakatlari va Xitoy o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni ustuvor yo‘nalishlarda kengaytirish istiqbollari, dolzarb xalqaro va mintaqaviy masalalar ko‘rib chiqildi.

O‘zbekiston Prezidenti nutqining avvalida XXR Raisi Si Szinpinning Markaziy Osiyo davlatlari bilan do‘stlik va hamkorlikni mustahkamlash, aniq loyiha va dasturlarni amalga oshirish orqali mintaqaning barqaror taraqqiyotini qo‘llab-quvvatlashdagi o‘rnini alohida ta‘kidladi.

2023-yilda Sian shahrida o‘tgan birinchi sammitdan so‘ng “Markaziy Osiyo — Xitoy” formatidagi hamkorlikda katta muvaffaqiyatlarga erishilgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Xususan, kotibiyat tashkil etildi, vazirlar, ekspertlar uchrashuvlari va yig‘ilishlarini o‘tkazish mexanizmlari ishga tushirildi, keng ko‘lamli hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy bazasi shakllantirilmog‘da.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining Xitoy bilan tovar ayirboshlash hajmi ortib bormog‘da, joriy yilda bu ko‘rsatkich 100 milliard dollarga yetishi kutilmog‘da.

— Bizningcha, bir tomondan, ishonch, yaxshi qo‘shnichilik va sheriklik makoniga aylangan Markaziy Osiyoning o‘zidagi chuqur transformatsiya jarayonlari, boshqa tomondan, Xitoy rahbariyatining qo‘shni davlatlar bilan do‘stona munosabatlarni rivojlantirish va “Makon va yo‘l” global konsepsiyasini ilgari surishga qat‘iy sodiqliqi ushbu formatdagi hamkorlikning rivojlanishiga imkon bermoqda, — dedi davlatimiz rahbari.

So‘ng O‘zbekiston yetakchisi mintaqaviy hamkorlikni yanada rivojlantirish bo‘yicha o‘z nuqtayi nazarini bayon qildi.

Avvalo, bu galgi uchrashuv xalqaro vaziyat sezilarli darajada yomonlashgan bir sharoitda o‘tayotgani ta‘kidlandi.

Raqobatning ortishi keskinlikning zo‘rayishiga, xavfsizlik va barqaror taraqqiyotga yangi xavf va tahdidlar paydo bo‘lishiga olib kelmog‘da.

— Nizoli xalqaro masalalar va ziddiyatli muammolarni hal qilish uchun kuch

ishlatish vositalaridan foydalanish o‘zini oqlamaydi va bunga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi, deb hisoblaymiz, — dedi Prezident. — Barcha nizo va ziddiyatlar suverenitetni hurmat qilish, xalqaro huquq me‘yorlari va Birlashgan Millatlar Tashkiloti nizomi asosida faqat diplomatik sa‘y-harakatlar yo‘li bilan — muzokaralar stolidal hal etilishi shart.

Shu munosabat bilan sammit davomida mintaqaviy barqarorlikni ta‘minlashga umumiy hissa qo‘shadigan Abadiy yaxshi qo‘shnichilik, do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi shartnoma qabul qilinishi tarixiy ahamiyatga ega ekanini ta‘kidlandi. Ushbu shartnomani rivojlantirish maqsadida aniq mexanizm va loyihalarni kiritgan holda Uzoq muddatli sheriklik konsepsiyasini ishlab chiqish taklif etildi.

O‘zbekiston yetakchisi ta‘kidlaganidek, Xitoy bilan savdo, investitsiyaviy va texnologik hamkorlik Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyalarini amalga oshirishda kuchli lokomotiv bo‘lib xizmat qilmog‘da.

Mintaqa mamlakatlarining o‘zaro borayotgan salohiyati va Xitoyning sanoat sohasidagi yetakchiligini birlashtirish bilimlar bilan almashish va texnologiyalar transferining samarali mexanizmlariga ega bo‘lgan umumiy keng imkoniyatlar makoni paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkinligi ta‘kidlandi.

Yangi iqtisodiy sheriklik dasturini tez fursatda qabul qilish hamda Bosh vazir o‘rinbosarlari darajasida Savdo va investitsiyalar bo‘yicha hududlararo kengashni ta‘sis etish bu boradagi amaliy qadam bo‘ladi. O‘zbekiston tomoni kengashning birinchi yig‘ilishini joriy yil oxirigacha o‘tkazishga tayyorligi bildirildi.

Savdo aloqalarini rag‘batlantirish maqsadida O‘zbekiston Prezidenti “Raqamli makon va yo‘l” doirasida “Raqamli Ipak yo‘li” ko‘p tomonlama savdo platformasini tashkil etish tashabbusini ilgari surdi.

Shuningdek, reglament va standartlarni yaqinlashtirish, eksport mahsulotlarini Xitoy talablari asosida sertifikatlash uchun Toshkent shahrida Sanoatda standartlashtirish va sertifikatlashtirish mintaqaviy markazini tashkil etish zarurligi ta‘kidlandi.

Biznes, yetakchi ilmiy-tadqiqot institutlari va muhandislik markazlarini jalb qilgan holda, texnologiyalar transferi bo‘yicha alohida “yo‘l xaritasi”ni qabul qilish taklifi bildirildi.

O‘zbekiston yetakchisi iqtisodiy salohiyatni samarali ro‘yobga chiqarish uchun sanoat

va infratuzilmaviy o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirish zarurligiga alohida to‘xtaldi. Shu maqsadda “Markaziy Osiyo — Xitoy” sanoat va infratuzilma makoni uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish taklif etildi.

Xitoy investitsiyalari, texnologik va ilmiy yechimlarini jalb qilgan holda, o‘zaro bog‘langan sanoat klasterlari, texnoparklar va logistika xabarlari tizimini yaratish shular jumlasidan.

Markaziy Osiyo mamlakatlari va Xitoy energetika tizimlarini o‘zaro bog‘lash, jumladan, yuqori kuchlanishli elektr uzatish liniyasini barpo etish megaloyihasini amalga oshirish masalalari ham diqqat bilan o‘rganilishi lozim.

Mintaqaviy ahamiyatga molik yirik loyihalarni qo‘llab-quvvatlashga qodir bo‘lgan samarali moliyaviy vositalarni joriy etish masalasi alohida dolzarblik kasb etmog‘da.

— Bugungi kunda amalda bo‘lgan xalqaro mexanizmlar, hech shubhasiz, muhim rol o‘ynamog‘da, ammo mintaqaning investitsiyaga bo‘lgan talabini to‘liq qoplay olmayapti. Ekspertlarning xulosasiga ko‘ra, Markaziy Osiyoni infratuzilmaviy rivojlantirishda kapital qo‘yilmalar taqchilligi bir necha yuz milliard dollar deb baholanmog‘da”, — dedi O‘zbekiston yetakchisi.

Shu munosabat bilan infratuzilmaviy tashabbuslarni ilgari surish uchun samarali platforma bo‘la oladigan “Markaziy Osiyo — Xitoy” taraqqiyot fondini ta‘sis etish imkoniyatini ko‘rib chiqish taklif qilindi.

Markaziy Osiyo va Xitoyning transport jihatidan o‘zaro bog‘liqligini rivojlantirish yana bir ustuvor yo‘nalish sifatida qayd etildi.

“Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” temir yo‘li qurilishi boshlangani Yevroosiyo makonidagi yangi transport va tranzit kommunikatsiyalari tizimining muhim elementi ekanini ta‘kidlandi. Shu bilan birga, Transafg‘on temir yo‘li magistrali loyihasini amalga oshirish yanada keng imkoniyatlar eshigini ochadi.

— Ushbu strategik soha istiqboliga oid umumiy yondashuvlarni ishlab chiqish uchun transport idoralarimizga dala tadqiqotlarini olib borish, logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish imkoniyatlarini o‘rganish, muqobil yo‘laklar bo‘yicha yuklarni tashish borasida sinov tariqasidagi loyihalarini amalga oshirish uchun ekspertlar guruhlarini shakllantirish yuzasidan topshiriq berishimiz zarur deb hisoblayman, — dedi O‘zbekiston yetakchisi.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOEYEVNING “MARKAZIY OSIYO – XITOIY” IKKINCHI SAMMITIDAGI NUTQI

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti hurmatli Qosim-Jomart Kemelovich To‘qayevga samimiy qabul va “Markaziy Osiyo — Xitoy” ikkinchi sammiti yuqori darajada tashkil etilgani uchun bildirilgan minnatdorlik so‘zlariga qo‘shilaman.

Xitoy Xalq Respublikasi Raisi hurmatli Si Szinpin janoblariga mintaqada davlatlari bilan do‘stlik va hamkorlikni mustahkamlashga qat‘iy sodiqliqi uchun tashakkur aytaman.

Sizning “Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlarini o‘zaro hurmat, o‘zaro ishonch va o‘zaro yordamga asoslangan ko‘p asrlilik do‘stlik va sheriklik rishtalari hamda yaqin aloqalarni o‘rnatish va yuqori sifatli hamkorlikni rivojlantirishga bo‘lgan intilish bog‘lab turadi”, degan so‘zlaringizni to‘liq qo‘llab-quvvatlayman.

Yaqinda nishonlangan tavallud ayyomingiz munosabati bilan Sizning sha‘ningizga bildirilgan samimiy qutlov va tilaklarga ham qo‘shilaman.

Hurmatli hamkasblar!

Bugungi uchrashuvimiz kun tartibi va tayyorlangan hujjatlarni, jumladan, Ostona deklaratsiyasini qo‘llab-quvvatlayman.

Cho‘llanishdan ogohlantirish, ta‘lim sohasida hamkorlik, kambag‘allikka qarshi kurashish bo‘yicha qo‘shma markazlar, shuningdek, Markaziy Osiyo va Xitoy uzluksiz savdo platformasi ishga tushirilganini olqishlayman. Hech shubhasiz, bu mexanizmlar hamkorlikni kengaytirishga imkon beradi. O‘zbekiston bunday tuzilmalar faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishda faol ishtirok etish niyatida.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari! Xitoy donishmandlari aytganlaridek: “Kimki do‘stlari bilan birga qadam tashlasa, uzoqqa boradi”.

Biz Siandagi ilk tarixiy sammitimizdan keyin jiddiy natijalarga erishdik. Yuqorida ta‘kidlanganidek, hamkorlikni ko‘p darajada muvofiqlashtirishni ta‘minlaydigan Kotibiyat tuzildi.

Turli yo‘nalishlar bo‘yicha vazirlar va ekspertlarning uchrashuv va yig‘ilishlariga oid samarali mexanizmlar ishlanmog‘da, keng ko‘lamli hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy bazasi shakllantirilmog‘da.

Tahlillar Markaziy Osiyo mamlaka-

katlarining Xitoy bilan umumiy savdo aylanmasi o‘zaro borayotganini ko‘rsatmog‘da. Joriy yilda bu ko‘rsatkich deyarli 100 milliard dollarga yetadi. Qo‘shma korxonalar va loyihalar soni esa 10 mingdan oshadi.

Bizningcha, bir tomondan, ishonch, yaxshi qo‘shnichilik va sheriklik makoniga aylangan Markaziy Osiyoning o‘zidagi chuqur transformatsiya jarayonlari, boshqa tomondan, Xitoy rahbariyatining qo‘shni davlatlar bilan do‘stona munosabatlarni rivojlantirish va “Belbog‘ va yo‘l” global konsepsiyasini ilgari surishga qat‘iy sodiqliqi ushbu formatdagi hamkorlikning rivojlanishiga imkon bermoqda.

Shu munosabat bilan ko‘p tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish borasidagi o‘z qarashlarimizni bildirmoqchiman.

Bugungi uchrashuvimiz xalqaro vaziyat sezilarli darajada yomonlashib borayotgan sharoitda bo‘lib o‘tmog‘da. Yo‘qotish va talafotlarga sabab bo‘ladigan mojaroalar yangidan alanga olmog‘da, global va mintaqaviy darajadagi yirik davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonchsizlik kuchaymog‘da.

Raqobatning ortishi keskinlikning zo‘rayishiga, xavfsizlik va barqaror

taraqqiyotga yangi xavf va tahdidlar paydo bo‘lishiga olib kelmog‘da.

Nizoli xalqaro masalalar va ziddiyatli muammolarni hal qilish uchun kuch ishlatish vositalaridan foydalanish o‘zini oqlamaydi va bunga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi, deb hisoblaymiz.

Muhtaram Si Szinpin janoblari, Sizning davom etayotgan mojarolar va urushlarda hech qanday g‘oliblar bo‘lmaydi, degan so‘zlaringizga to‘liq qo‘shilaman.

Barcha nizo va ziddiyatlar suverenitetni hurmat qilish, xalqaro huquq me‘yorlari va Birlashgan Millatlar Tashkiloti nizomi asosida faqat diplomatik sa‘y-harakatlar yo‘li bilan — muzokaralar stolidal hal etilishi shart.

Ta‘kidlash kerakki, oldindan aytib bo‘lmaydigan bunday sharoitda xalqaro munosabatlarning hozirgidan ko‘ra barqaror tizimlarini ta‘minlash uchun mamlakatlarini birlashtirishga qodir bo‘lgan mintaqaviy mexanizmlarning ahamiyati va roli oshmog‘da.

Shu munosabat bilan bugun mamlakatlardim o‘rtasidagi Abadiy yaxshi qo‘shnichilik, do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi shartnomaning qabul qilinishini tarixiy voqea, deb hisoblayman. Ushbu hujjat mintaqaviy barqarorlikni ta‘minlashga qo‘shgan umumiy

hissamiz bo‘lib qoladi. Shartnomani amaliy jihatdan mustahkamlashda aniq mexanizm va loyihalarni qamrab olgan Uzoq muddatli sheriklik konsepsiyasini qabul qilish muhim ahamiyatga ega.

Savdo, investitsiya va texnologik hamkorlik Markaziy Osiyodagi barcha mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini amalga oshirishda kuchli lokomotiv bo‘lib xizmat qilmog‘da.

Birgina misolni keltirib o‘taman.

Xitoyning ilg‘or tajribasi asosida bizning mamlakatimizda sanoat salohiyati va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish, hududlarimizda yangi ish o‘rinlarini yaratishga qaratilgan o‘nlab yirik loyihalar amalga oshirildi.

Ta‘kidlayman: Markaziy Osiyo mamlakatlarining o‘zaro borayotgan salohiyati va Xitoyning sanoat sohasidagi yetakchiligini birlashtirish bilimlar bilan almashish va texnologiyalar transferining samarali mexanizmlariga ega bo‘lgan umumiy keng imkoniyatlar makoni paydo bo‘lishiga olib kelishi lozim.

Ishonchim komil, yangi iqtisodiy sheriklik dasturining tezroq qabul qilinishi ushbu yo‘nalishda yana bir amaliy qadam bo‘ladi.

Davomi 2-betda



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING “MARKAZIY OSIYO – XITOIY” IKKINCHI SAMMITIDAGI NUTQI

Boshlanishi 1-betda

Sanoat sohasidagi va infratuzilmaviy bog'liqlikning kuchayishi mam-lakatlarimizning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish imkonini beradi. Shu maqsadda “Markaziy Osiyo — Xitoy” sanoat va infratuzilmaviy makonini yaratishga qaratilgan uzoq muddatli strategiyani ishlab chiqishni taklif etaman.

Bu o'rinda gap Xitoyning investitsiya-lari, texnologik va ilmiy yechimlarini jalb etgan holda, o'zaro bog'liq sanoat klasterlari, texnoparklar va logistika xabarlari tizimini yaratish haqida bormoqda.

Bundan tashqari, energetika vazirlari Markaziy Osiyo mamlakatlari va Xitoy energetika tizimlarini bog'lash, jumladan, yuqori kuchlanishli elektr uzatish tarmoqlarini qurish bo'yicha mega-loyi-halarni amalga oshirish masalalarini diqqat bilan o'rganishlari lozim.

Mintaqaviy ahamiyatga ega bo'lgan yirik loyihalarni qo'llab-quvvatlashga qodir bo'lgan samarali moliyaviy vositalarni joriy etish masalasi alohida dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

Qayd etmoqchimanki, bugungi kunda amalda bo'lgan xalqaro mexanizmlar, hech shubhasiz, muhim rol o'ynamoqda, ammo mintaqaning investitsiyaga bo'lgan talabini to'liq qoplay olmayapti.

Ekspertlarning xulosasiga ko'ra, Markaziy Osiyoni infratuzilmaviy rivojlantirishda kapital qo'yilmalar taqchilligi bir necha yuz milliard dollar deb baholanmoqda.

Shu munosabat bilan infratuzilmalarga oid tashabbuslarni ilgari yurishda samarali platformaga aylanishi mumkin bo'lgan “Markaziy Osiyo — Xitoy” taraqqiyot jamg'armasini ta'sis etish imkoniyatlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Markaziy Osiyo va Xitoyning transport sohasidagi o'zaro bog'liqligini rivojlantirish yana bir ustuvor yo'nalish hisoblanadi. “Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston” temir yo'li qurilishi boshlanganini Yevroosiyo makonida yangi transport va tranzit kommunikatsiyalari

tizimining muhim elementi deb hisob-laymiz.

Barcha mamlakatlarimiz uchun keng imkoniyatlar ochildigan va Xitoyni mintaqamiz orqali Janubiy Osiyo bilan bog'lash imkonini beradigan Transafg'on temir yo'li magistrali loyihasi amalga oshirilishining qo'llab-quvvatlanishiga umid qilamiz.

Ushbu strategik soha istiqboliga oid umumiy yondashuvlarni ishlab chiqish uchun transport idoralarimizga dala tadqiqotlarini olib borish, logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish imkoniyatlarini o'rganish, muqobil yo'laklar bo'yicha yuklarni tashish borasida sinov tariqasidagi loyihalarini amalga oshirish uchun ekspertlar guruhlarini shakllantirish yuzasidan topshiriq berishimiz zarur deb hisoblayman.

Ular faoliyatining natijalari bo'yicha keyingi uchrashuvimizgacha transport yo'laklari va zamonaviy tranzit infratuzilmalarining yagona xaritasini shakllantirish uchun aniq va asoslangan takliflar ishlab chiqilishi lozim.

Mamlakatlarimiz barqaror taraqqiyotiga jiddiy tahdidlardan yana biri — bu iqlim o'zgarishlari oqibatlaridir.

Ishonchim komil, mintaqada Xitoyning ilg'or tajribasini keng joriy etish xatarlarni kamaytirish, “yashil” kun tartibi va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi chora-tadbirlar samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Shu munosabat bilan 2030-yilgacha mo'ljallangan “Yashil” rivojlanish dasturini qabul qilish va uni amalga oshirishga imkon qadar tezroq kirishish muhimdir.

Cho'llanishga qarshi kurashish, degradatsiyaga uchragan yerlarni qayta tiklash, qurg'oqchil va cho'l hududlarida bioekologik barqarorlikni oshirish sohasida muloqot va sheriklik uchun bizning formatda Ekologik alyansni tuzishni taklif etaman.

Qayd etmoqchimanki, Xitoy tajribasi va uslubidan foydalangan holda, biz mintaqada kompleks ko'kalamzorlashtirish va pitomniklar yaratish, biomuhandislik, biomonitoring stansiyalarini rivojlantirishni, shuningdek,

ijtimoiy-ta'lim dasturlarini qamrab olgan sinov tariqasidagi loyihalarni amalga oshirishimiz mumkin.

Sun'iy intellektlarga qamrab olinadigan texnologiyalar sohasidagi hamkorlik imkoniyatlariga alohida to'xtalishni istar edim. Aynan ushbu yo'nalishlar bugungi kunda milliy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligini belgilab, uzoq muddatli o'sishning drayveri bo'lmoqda.

Xitoy intellektual tizimlar rivojlanishida yetakchilik qilib, ushbu yo'nalishda an'anaviy ravishda yuqori o'rnlarni egallab kelmogda.

Ishonchim komilki, sun'iy intellekt va choklamagan, transchegaraviy elektron kanallar asosida ishlaydigan katta ma'lumotlar bazalari va protsessing markazlarining O'zaro integratsiyalashgan banklar tarmog'ini yaratish iqtisodiy hamkorlikning barqaror raqamli infratuzilmasini shakllantirish imkonini beradi.

Asosiy energetika va transport yo'nalishlari bo'ylab “Markaziy Osiyo — Xitoy” optik tolali aloqa tarmog'ining raqamli trassasini barpo etish zarur deb hisoblaymiz.

Bu onlayn savdo, “aqlli” logistika, bulutli texnologiyalar va sun'iy intellekt — Sian deklaratsiyasida o'z ifodasini topgan raqamli kun tartibining barcha yo'nalishlarini yanada rivojlantirish uchun asos yaratadi.

Xalqlarimizning bir-birining madaniyatini o'zaro boyitish va yaqinlashishga bo'lgan umumiy intilishi — bu bizning bebaho boyligimizdir. Madaniyatlar rang-barangligini hurmat qilish tamoyiliga tayangan holda, bizning hamkorligimiz millionlab insonlar uchun madaniy almashuv yo'lida yangi imkoniyatlarni ochmoqda.

Bugun qabul qilinayotgan O'zaro tashriflarni yengillashtirish bo'yicha tashabbus va Madaniy-gumanitar tadbirlar dasturi aynan shu maqsadlarga qaratilgan.

“Ipak yo'li madaniy merosi” yagona raqamli portalini yaratishni taklif etamiz. U Markaziy Osiyo mamlakatlari va Xitoyning tarixiy-madaniy resurslarini, ulardan tadqiqotchilar, talabalar, sayyohlar va

kreativ sanoat vakillarining foydalanishiga imkon bergan holda, birlashtiradi.

Professional ta'lim sohasida hamkorlik dasturlarini ishlab chiqish, universitetlar rektorlari forumlarini o'tkazish, ilmiy akademiyalar va ilmiy-tadqiqot markazlari rahbarlari uchrashuvlarini tashkil etish orqali umumiy ilmiy-ta'lim platformalarini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Xavfsizlik sohasidagi hamkorlik hal qiluvchi ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolishi kerak. Maxsus xizmatlar va xavfsizlik kengashlari yo'nalishida terrorizm, ekstremizm, radikalizm, narkotrafik, noqonuniy migratsiya va kiberjinoqchilikka qarshi kurashish bo'yicha axborot almashishning ko'p tomonlama ishchi mexanizmlarini yo'lga qo'yishni taklif etaman.

Biz uchun nafaqat qo'shni, balki umumiy tarixiy-madaniy va iqtisodiy makonimizning ajralmas qismi bo'lgan Afg'oniston muammolariga xalqaro hamjamiyat e'tiborining pasayishi jiddiy tashvish uyg'otmoqda.

Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlari Afg'onistonning hamkorlik bo'yicha boy tajribaga ega bo'lgan an'anaviy sheriklari sifatida uning qayta tiklanishi va mintaqaviy integratsiya jarayonlariga jalb etilishiga ko'maklashish uchun barcha imkoniyatlarga ega deb hisoblayman.

Shu munosabat bilan formatimiz doi-rasida ushbu masalalarni ko'rib chiqish bo'yicha yuqori darajadagi guruh ta'sis etishni va uning uchrashuvini Afg'oniston vakillari ishtirokida chegaradosh Termizda o'tkazishni taklif etaman.

Hurmatli hamkasblar!

Fursatdan foydalanib, Xitoy Xalq Respublikasi vakili Sun Veydun janoblariga muloqotimizning doimiy faoliyat yurituvchi Kotibiyati bosh kotibi lavozimidagi faoliyatida muvaffaqiyatlar tilayman.

So'zimizning yakunida O'zbekiston ochiq muloqotga, “Markaziy Osiyo — Xitoy” formatidagi pragmatik va o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirishga sodiq ekanini ta'kidlayman. Ishonchim komilki, bunday sheriklik mamlakatlarimiz va xalqlarimiz farovonligi va ravnaqiga xizmat qiladi.

MARKAZIY OSIYO VA XITOIY O'RTASIDA USHBU FORMATDAGI HAMKORLIK DOLZARB AHAMIYAT KASB ETMOQDA

Boshlanishi 1-betda

Ushbu guruhlar ishining natijalari asosida kelgusi sammitga qadar transport yo'laklari va zamonaviy tranzit infratuzilmasining yagona xaritasini shakllantirish bo'yicha aniq va asoslangan takliflar ishlab chiqilishi kerak.

Davlatimiz rahbari iqlim o'zgarishining barqaror rivojlanish uchun jiddiy tahdidlariga e'tibor qaratib, 2030-yilgacha mo'ljallangan “Yashil” rivojlanish dasturini qabul qilishni jadallashtirish, shuningdek, cho'llanishga qarshi kurashish, degradatsiyaga uchragan yerlarni tiklash, qurg'oqchil va cho'l hududlarida bioekologik barqarorlikni oshirish bo'yicha muloqot va sheriklik uchun Ekologik alyansni tuzishga chaqirdi.

— Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar sohasidagi hamkorlik imkoniyatlariga alohida to'xtalishni istar edim. Aynan ushbu yo'nalishlar bugungi kunda milliy iqtisodiyotlarning raqobatbar-doshligini belgilab, uzoq muddatli o'sishning drayveri bo'lmoqda, — dedi Prezidentimiz.

Iqtisodiy hamkorlikning barqaror raqamli infratuzilmasini shakllantirish maqsadida katta ma'lumotlar bazalari va protsessing markazlarining O'zaro integratsiyalashgan banklar tarmog'ini yaratish, shuningdek, asosiy energetika va transport yo'nalishlari bo'ylab “Markaziy Osiyo — Xitoy” optik tolali aloqa liniyasining raqamli trassasini barpo etish taklif qilindi.

— Xalqlarimizning bir-birining madaniyatini o'zaro boyitish va yaqinlashishga bo'lgan umumiy intilishi — bu bizning bebaho boyligimizdir. Bugun qabul qilinayotgan O'zaro tashriflarni yengillashtirish bo'yicha tashabbus va Madaniy-gumanitar tadbirlar dasturi aynan shu maqsadlarga qaratilgan, — dedi Prezidentimiz.

Bu boradagi hamkorlikni yanada mustahkamlash maqsadida Markaziy Osiyo mamlakatlari va Xitoyning tarixiy-madaniy resurslarini o'zida mujassam etgan, tadqiqotchilar, talabalar, sayyohlar va kreativ industriya vakillarini qamrab olgan “Ipak yo'li madaniy merosi” yagona raqamli portalini yaratish taklif qilindi.

Shuningdek, professional ta'lim sohasida hamkorlik dasturini ishlab

chiqish, universitet rektorlari forumlari, fanlar akademiyalari va ilmiy-tadqiqot markazlari rahbarlarining uchrashuvlarini o'tkazish orqali umumiy ilmiy-ta'lim platformasini shakllantirish maqsadga muvofiqligi ko'rsatib o'tildi.

Xavfsizlik sohasidagi hamkorlik asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Shu munosabat bilan Prezidentimiz terrorizm, ekstremizm, radikalizm, narkotrafik, noqonuniy migratsiya va kiberjinoqchilikka qarshi kurashishda maxsus xizmatlar va xavfsizlik kengashlari orqali ko'p tomonlama axborot almashish mexanizmlarini yo'lga qo'yish muhimligini ta'kidladi.

— Biz uchun nafaqat qo'shni, balki umumiy tarixiy-madaniy va iqtisodiy makonimizning ajralmas qismi bo'lgan Afg'oniston muammolariga xalqaro hamjamiyat e'tiborining pasayishi jiddiy tashvish uyg'otmoqda, — dedi O'zbekiston yetakchisi.

Xitoy va Markaziy Osiyo davlatlarining Afg'oniston bilan hamkorligida to'plangan boy tajribani qayd etib, O'zbekiston Prezidenti ushbu mamlakatning tiklanishiga ko'maklashish va uni mintaqaviy integratsiya jarayonlariga jalb etish masalalarini ko'rib chiqish bo'yicha yuqori darajadagi guruhni ta'sis etishni taklif qildi.

Guruh uchrashuvini Termiz shahrida Afg'oniston vakillari ishtirokida o'tkazishga tayyorlik bildirildi.

Davlatimiz rahbari so'zining yakunida O'zbekiston “Markaziy Osiyo — Xitoy” formatidagi ochiq muloqot, pragmatik va o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish tarafdori ekanini ta'kidladi.

Yig'ilish so'ngida davlat rahbarlari Ostona deklaratsiyasi va Abadiy yaxshi qo'shnichilik, do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnomani imzoladilar.

Shuningdek, hukumatlararo va idoralararo hujjatlarining salmoqli to'plami qabul qilindi.

Sammit yakunida kambag'allikka qarshi, cho'llanishga qarshi kurashish, ta'lim sohasidagi hamkorlik markazlari hamda to'siqsiz savdo bo'yicha hamkorlik platformasini ishga tushirish marosimi bo'lib o'tdi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Ostona amaliy tashrifi yakunlandi.

O'ZA

“MARKAZIY OSIYO – XITOIY” SAMMITI MINTAQAVIY HAMKORLIKNING SAMARALI MEKANIZMI

O'ZBEKISTON PREZIDENTINING MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI VA XITOIY YETAKCHILARI SAMMITIDAGI ISHTIROKIGA XORIJDAN NIGOH

17-iyun kuni Ostona shahrida “Markaziy Osiyo — Xitoy” formatidagi ikkinchi sammit bo'lib o'tdi. Mazkur platforma ko'p tomonlama mintaqalararo hamkorlikning samarali mexanizmi sifatidagi maqomini mustahkamladi.

Ushbu format iqtisodiyot, transport, barqaror rivojlanish, xavfsizlik va gumanitar aloqalar sohalarida sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish uchun yangi uqlarni ochib, barqaror rivojlanish dinamikasini namoyish etadi. Uning dolzarbligi va samaradorligi aniq: u barcha tomonlarning umumiy manfaatlariga javob beradi, shuningdek, mintaqaning xalqaro rolini oshirishga xizmat qiladi.

Xalqaro ekspertlar ta'kidiga ko'ra, bu jarayonda O'zbekiston asosiy rol o'ynaydi. Rasmiy Toshkent nafaqat Pekin bilan ikki tomonlama formatda strategik sheriklikni faol rivojlantirmoqda, balki Markaziy Osiyoning mintaqaviy kun tartibini shakllantirishga ham salmoqli hissa qo'shmoqda.

Bugungi kunda mintaqamamlakatlari ko'p jihatdan o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash va birgalikda rivojlanishning izchil tarafdori bo'lgan O'zbekiston tashabbuslari tufayli tobora jipslashib, taraqqiy etmoqda.

Sun CHUANCHUJ, Xitoy Ijtimoiy fanlar akademiyasining Rossiya, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo instituti direktori:



— 17-iyun Xitoyning Markaziy Osiyodagi yaqin va ishonchli hamkorlari bilan o'zaro munosabatlarning yangi tarixiga kiradi. Bu format ishga tushganiga bor-yo'g'i ikki yil

Ma BIN, Fudan universiteti Rossiya va Markaziy Osiyo tadqiqotlari markazi direktori o'rinbosari (Xitoy):



— 2023-yil may oyida Xitoyning Sian shahrida “Markaziy Osiyo — Xitoy” yangi mexanizmi doirasidagi birinchi sammit bo'lib o'tdi va bu Pekin hamda mintaqaning beshta davlati o'rtasidagi muloqotning institutsionallashtirilgan formatining boshlanishi bo'ldi. Xitoy ushbu mexanizmini chegaralar diplomatiasidagi strategik yangilik va g'arbiy yo'nalishda “Bir makon, bir yo'l” tashabbusini ilgari surish uchun asosiy platforma sifatida ko'rmoqda. Xitoy tashqi siyosati doktrinasi nuqtayi nazaridan mexanizm nafaqat g'arbiy chegaralarda barqarorlikni mustahkamlash, balki Markaziy Osiyoda iqtisodiy va siyosiy ishtirokni kengaytirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Muntazam platformaning yaratilishi Xitoyga savdo, infratuzilma va xavfsizlik sohasidagi asosiy loyihalarni muvofiqlashtirish, barqaror hamkorlik arxitekturasini shakllantirishga turki beradi. Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, O'zbekiston uchun bu yirik sarmoya, ilg'or texnologiyalar, ta'lim va gumanitar dasturlardan foydalanish imkoniyatini anglatadi.

Shu bilan birga, Xitoyning mintaqaning strategik tarmoqlari — logistika, energetika, raqamli transformatsiya va ta'limdagi ishtiroki bosqichma-bosqich chuqurlashib bormoqda.

Pekin Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston temir yo'li loyihasini ko'lajak Yevroosiy

yo'lagining eng muhim bo'g'ini sifatida ko'rib, transchegaraviy infratuzilmani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Ushbu transport arteriyasi mintaqaning logistik geografiasini tubdan o'zgartirish, Markaziy Osiyoni Sharqiy Osiyo va global ta'liminotlari integratsiyalash imkoniyatiga ega. Infratuzilma loyihalari bilan bir qatorda, Xitoy ekstremizm va tashqi aralashuvga qarshi kurashishni ta'kidlab, xavfsizlikni ta'minlash dasturini izchil ilgari surmoqda. Bu Pekinga huquqni muhofaza qilish sohasida hamkorlikni chuqurlashtirish va institutsional ishtirokni mustahkamlash imkonini beradi.

Gumanitar yo'nalish ham Xitoy uchun muhimligicha qolmoqda. Akademik almashinuv dasturlari, madaniy tashabbuslar, stipendiyalar va kasbiy ta'lim orqali Pekin uzoq muddatli ijtimoiy aloqalarni shakllantiradi hamda ishonchli hamkor sifatidagi imjini mustahkamlaydi. Ushbu “yumshoq” komponent Xitoyning mintaqaviy strategiyasining iqtisodiy va siyosiy tarkibiy qismlarini to'ldiradi.

Shular fonda O'zbekiston Prezidentining 2024-yil yanvar oyida Xitoyga davlat tashrifi chog'ida yangi sur'at olgan O'zbekiston — Xitoy strategik sherikligi mustahkamlangani, ayniqsa, yaqqol ko'zga tashlanadi. Tomonlar iqtisodiyotidan tortib, gumanitar hamkorlik va tashqi siyosatni muvofiqlashtirishga bo'lgan keng ko'lamli sohalarni qamrab oluvchi har tomonlama sheriklik darajasida munosabatlar yuzaga kelganini qayd etdilar.

O'zbekiston Xitoyning Markaziy Osiyodagi asosiy hamkori maqomini mustahkamlamoqda. TIV rahbarlari darajasida Strategik muloqotning yo'lga qo'yilgani, Samarqandda ikkinchi Hududlar forumining o'tkazilishi, shuningdek, savdo va investitsiyaviy ko'rsatkichlar keskin oshgani buning yaqqol dalilidir. O'zbekistonda qo'shma sanoat zonalarini faol rivojlantirmoqda, elektromobillar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Katta investitsiyalar “yashil” energiya, raqamli iqtisodiyot, agrosanoat sektori, farmatsevtika, logistika va boshqalarga yo'naltirilmoqda.

Xalqaro muvofiqlashtirish ham tizimli darajaga ko'tarilayapti. Rasmiy Toshkent va Pekin BMT, SHHT, “Markaziy Osiyo — Xitoy” mexanizmi doirasida hamkorlikni

chuqurlashtirishga tayyor ekanliklarini tasdiqlaydilar. O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi bo'yicha ikki tomonlama muzokaralar yakunlangani to'g'risidagi bayonnomaning imzolanishi ikki davlat strategiyalarining siyosiy va iqtisodiy hamohangligi ramzi bo'ldi.


Ta'kidlash joizki, Pekin Toshkentga ham ikki tomonlama formatda, ham mintaqaviy ko'p tomonlama arxitektura doirasidagi ustuvor ittifoqchi sifatida qaraydi. Shu bilan birga, O'zbekiston uchun bu hamkorlik nafaqat investitsiya va texnologiya manbai, balki jahon davlatlari o'rtasidagi raqobat kuchayib borayotgan bir sharoitda xalqaro mavqeni mustahkamlash va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning muhim vositasidir.

Antonio ALONSO, San-Pablo universiteti professori (Ispaniya):

— O'zbekiston rahbarining sammitdagi ishtiroki mintaqaviy davlatlari va Xitoy o'rtasidagi tizimli va ittifoqli hamkorlikni rivojlantirish yo'lidagi muhim qadamdir. Ilmiy va geosiyosiy nuqtayi nazardan ushbu format nafaqat rasmiy Pekinning Markaziy Osiyoga qiziqishi ortib borayotganini, balki mintaqaviy davlatlarining o'zlari ham o'zaro manfaat va suverenitetni hurmat qilish tamoyillariga asoslangan ko'p tomonlama hamkorlik arxitekturasini shakllantirishdagi faol pozitsiyasini namoyish etadi.

Bunday sharoitda O'zbekiston integratsiya jarayonlarining asosiy ishtirokchisi va konstruktiv tashabbuskori sifatida harakat qilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida mamlakatimizda mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirish, sarmoyaviy jozibadorlikni oshirish va xalqaro hamkorlar, jumladan, Xitoy bilan o'zaro sheriklikning barqaror mexanizmlarini yaratishga qaratilgan aniq yo'nalish izchil davom ettirilmoqda.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston va Xitoy so'nggi yillarda o'zaro anglashuv va strategik sheriklikning yuqori darajasiga erishdi. Bu esa O'zbekiston kun tartibini “Markaziy Osiyo — Xitoy” formatini rivojlantirish uchun yanada ahamiyatli qiladi. Savdo hajmining barqaror o'sib



borayotgani, ko'plab investitsiyaviy loyihalar, gumanitar va ilmiy-ta'lim almashinuvlarining faollashayotgani — bularning barchasi o'zaro munosabatlarning yetuk va ko'p bosqichlilikidan dalolat beradi.

Ostona sammitida milliy taraqqiyot strategiyalarini Xitoyning “Bir makon, bir yo'l” tashabbusi bilan uyg'unlashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Bu yerda mintaqaning markazida joylashgan O'zbekiston tabiiy logistika va infratuzilma markazi rolini bajaradi. Transport yo'laklari va sanoat uzellari rivojlantirish kabi ulkan loyihalarni uning faol ishtirokisiz amalga oshirish mumkin emas.

Shuningdek, “Markaziy Osiyo — Xitoy” formati iqtisodiy kun tartibidan ko'ra, ko'proq yo'nalishlarni qamrab olishini alohida ta'kidlash zarur. Xavfsizlik, ekologiya, qishloq xo'jaligi, ta'lim, shuningdek, idoralararo aloqalarni institutsionallashtirish masalalarini muhokama qilish mintaqaviy muloqot uchun to'laonli platforma shakllantirilganidan dalolat beradi. Bunday sharoitda O'zbekistonning an'anaviy ravishda konsensus, diplomatik muvozanat va pragmatizmga qaratilgan pozitsiyasi butun Markaziy Osiyo uchun barqarorlashtiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy nuqtayi nazardan qaraganda, biz mintaqaviy hamkorlikning yangi modeli paydo bo'layotganiga guvoh bo'lyapmiz, bunda Markaziy Osiyo davlatlari tobora subyektiv rol o'ynay boshladi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning sammitdagi ishtiroki bu jarayonda O'zbekistonning nafaqat milliy manfaatlarini, balki Yevroosiyoning yangi geoiqtisodiy va geosiyosiy konfiguratsiyasini shakllantirishga hissa qo'shish istagini ham aks ettiradi.

Shu bois, Ostona bo'lib o'tgan sammit mintaqaviy integratsiya uchun yangi uqlarni ochadi va Shavkat Mirziyoyev rahbarligidagi O'zbekistonning bu jarayonlarga qo'shgan hisssasi esa eng yuqori bahoga loyiqdir.

“Dunyo” AA

Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

IJRO INTIZOMI —
TARAQQIYOT POYDEVORI

Qurilish mamlakat taraqqiyoti ko‘zgusidir. Undagi har bir bino, yo‘l, infratuzilma obyekti — davlat siyosati va ijtimoiy mas’uliyatning amaliy ko‘rinishi. Shu bois, sohadagi har bir ishga mas’uliyat bilan yondashish, qabul qilingan hujjatlar ijrosini ta’minlash, tartib-intizomga katta e’tibor qaratish zarur.



Sherzod HIDOYATOV,
qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vaziri

Negaki, har bir qonunchilik hujjati xalq bilan ochiq mulohaza qilish, aholi va tadbirkorlik subyektlarining fikrlarini tinglash, ko‘p yillardan buyon fuqarolarni qiyin kelayotgan muammolarni joyiga chiqqan holda o‘rganish orqali qabul qilinmoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan mas’ullar oldiga qo‘yilayotgan qat’iy talab va tanqidiy tahlillar barchamizni yanada **mas’uliyatli, fidoyi va natijaga yo‘naltirilgan** ish uslubiga o‘tishga undaydi. Zero, tartib va intizom bo‘lgan joydagina barqarorlik va taraqqiyot bo‘ladi.

Islohotlar samaradorligi va ko‘zlangan maqsadlarga erishishning natijadorligi esa bevosita mustahkam ijro intizomi bilan bog‘liq. Aynan davlat idoralari va tashkilotlaridagi ijro intizomi holatidan kelib chiqib, har bir tarmoqning rivojlanish darajasiga baho berish mumkin.

Darhaqiqat, tartib, mas’uliyatni chuqur his etish rivojlanishga asos bo‘ladi. Bu omillar intizomni shakllantirib, vazifa va topshiriqlar ijrosini ta’minlashning eng muhim jihatlari. Bugungi taraqqiyot, atrofmizdagi, odamlar hayotidagi o‘zgarishlarni inobatga olsak, bu, ayniqsa, qurilish-bunyodkorlik sohasida juda muhim. Chunki hozir yurtimiz bo‘ylab qurilish ishlari jadal davom ettirilmoqda. Zamonaviy turar joylar, ijtimoiy obyektlar, yangi infratuzilma tarmoqlari, yangi mavzalar xalqimizning munosib va farovon yashashi uchun xizmat qilmoqda. Demak, bular soha vakillari zimmasiga ham ko‘p vazifa va katta mas’uliyat yuklaydi.

Aslida, hech bir ishga yuzaki qarab bo‘lmaydi. Har bir tarmoq, har bir sohaning o‘ziga xos talablari bor. Bu esa soha vakillari mas’uliyatini yanada oshiradi. Ya’ni **har bir rahbar ijro intizomi masalasiga yuqori mas’uliyat bilan yondashishi kerak**. Belgilangan topshiriqlar ijrosini o‘z vaqtida, to‘liq va sifatli ta’minlash, bu bo‘yicha ishlarni to‘g‘ri rejalashtirish lozim. Topshiriqlarni ijro muddatigacha bajarish bo‘yicha oldindan zarur chora-tadbirlar ko‘rib borishi shart.

Islohotlar ko‘lami mas’uliyatni yanada oshiradi

So‘nggi yillarda mamlakatimizda barcha sohada bo‘lgani kabi qurilish sohasidagi ishlar ko‘lami zimmamizdagi mas’uliyatni yanada oshiradi. Qabul qilingan qonunlar, farmon va qarorlarda belgilangan vazifalar nafaqat soha rivojiga, balki xalqimizning farovonligini oshirish, jamiyat taraqqiyotini yuksaltirishga xizmat qilishi bilan yanada ahamiyatli.

Jumladan, Prezidentimizning 2021-yil 10-fevraldagi “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruv organi rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bilan ijro intizomiga alohida e’tibor qaratildi.

Ushbu farmon va qarorda qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar loyihalarini puxta **iqtsodiy, moliyaviy va huquqiy** ekspertizadan o‘tkazishni ta’minlash, qabul qilingan hujjatlar ijrosini samarali tashkil etish va ijrosini nazorat qilishning ta’sirchan tizimini yaratish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Vazirlik tizimida ushbu hujjatlarda belgilangan vazifalarni amaliyotga so‘zsiz tabiiy etish maqsadida xodimlar o‘rtasida muntazam tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Bunda asosiy e’tibor xodimlarning yangi shakllangan qonunchilik hujjatlaridan xabardorligini oshirish, xizmat

vazifasiga vijdonan va alohida mas’uliyat bilan yondashish, har bir ishda shaxsiy javobgarlikni kuchaytirishga qaratildi.

Ijro etuvchi organ sifatida topshiriqlarning o‘z vaqtida bajarilishi muhimligini to‘liq his etgan holda, **xodimlarning shaxsiy mas’uliyati, kasbiy mahorati, talabchanligi va tashabbuskorligini oshirish, ularda vatanga sadoqat, mehnatsevarlik va halollik hissinii uyg‘otish, qat’iy “temir intizom” o‘rnatish** borasida muntazam ish olib borilmoqda. Pirovardida, o‘tgan vaqtda ishiga siddiqdilan yondashadigan, fidoyi kadrlar jamoasi shakllandi.

Shuningdek, farmon va qaror bilan davlat xizmatchilarining mas’uliyatini oshirish bo‘yicha javobgar tomonlar ham belgilab berilgan qonunchilik hujjatlari ijrosini sifatli va o‘z muddatida ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Har bir hujjat ijrosi qat’iy nazorat qilinadi

Bundan tashqari, “Ijro.gov.uz” tizimi orqali bevosita vakolatli davlat organlari tomonidan hududlar, tarmoq va tashkilotlarda qonunchilik hujjatlari ijrosi bo‘yicha bajarilayotgan ishlar nazorat qilib borilmoqda. Eng muhimi, ushbu tizim qamrovi tobora kengaymoqda. Ya’ni hududiy davlat boshqaruv organi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining tuman tuzilmalari ham unga ulandi.

Umuman olganda, vazirligimizda har bir qonunchilik hujjati va topshiriqlarning qat’iy hisobini yuritish hamda belgilangan muddatlarda ijrosini monitoring qilish bo‘yicha qat’iy tizim yaratilgan.

Farmonda belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda vazirlikda qonunchilik hujjatlari ijrosini tashkil etish, ijro intizomini yanada



qaratilgan. Vazirlik markaziy apparatining 2 nafardan xodimi Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarga biriktirilgan. Ular vazirlikka yuklatilgan topshiriqlarning joylardagi ijrosini bevosita tashkil qilishga ko‘maklashadi;

“Qurilish sohasida davlat xizmatlarini ko‘rsatish” axborot tizimida qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasidagi barcha 16 ta davlat xizmati raqamlashtirilishi natijasida aholi va biznes egalariga uydin chiqmagan holda xizmatlardan foydalanish imkoniyati yaratildi. 2022-2024-yillarda “Davxizmat” axborot tizimi orqali 993,4 mingta obyekt bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatilgan.



mustahkamlash bo‘yicha quyidagi tizim joriy etilgan:

birinchidan, qonunchilik hujjatlari kelib tushgan kunning o‘zidayoq uni ijroga qaratish yuzasidan **rahbar topshirig‘i** (zarur holdarda buyruq) tayyorlanadi va imzolab, ijrochilarga tezkor yetkaziladi;

ikkinchidan, qonunchilik hujjatlarining nazorat bandlari va topshiriqlarda aniq mexanizmlar, muddat va mas’ullar belgilanishi bo‘yicha “yo‘l xaritalari” (harakat rejalari) ishlab chiqiladi hamda ularning **har bir xodim shaxsiy ish rejasida** aks ettirilishi ta’minlanadi;

uchinchidan, qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning muddatidan oldin ijrosini sifatli tashkil etish choralari ko‘riladi va “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimida o‘z vaqtida hisobot berilishiga alohida e’tibor qaratiladi.

Bunda topshiriqlar ijrosining joyiga chiqqan holda tashkil etilishiga alohida e’tibor

to‘rtinchidan, **ijro intizomini mustahkamlash va topshiriqlarning muddatida bajarilishi** masalasi har dushanba kuni vazir huzurida, chorshanba va juma kunlari vazir o‘rinbosarlari boshchiligidagi muhokama qilinadi buyruq) tayyorlanadi va imzolab, ijrochilarga tezkor yetkaziladi;

Bundan tashqari, har payshanba kuni vazir boshchiligidagi tizim tashkilotlari va hududiy boshqarmalar bilan o‘tkaziladigan videoselektor muhokamalarida ham ijro intizomi masalasi ko‘rib chiqiladi;

beshinchidan, qo‘yilgan vazifalarning mohiyati va ahamiyatini vazirlik, tizim tashkilotlari va hududiy boshqarmalar xodimlari o‘rtasida tushuntirish maqsadida **iqtsodiy o‘quvlar** tashkil etib boriladi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Hisob palatasi, Vazirlar Mahkamasi va Adliya vazirligi bilan birgalikda ijro intizomini mustahkamlash, bu yo‘nalishdagi muammolarni bartaraf etish va

tizimni yanada samarali tashkil etish yuzasidan amaliy seminarlar o‘tkaziladi;

oltinchidan, qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar o‘z vaqtida, to‘liq va natijali ijro etilishi tanqidiy tahlil qilinib, vazirlik hay’ati yig‘ilishlarida muhokama qilib boriladi hamda mo‘ljallangan maqsadlarga erishilishi va ijro intizomi holati vazirlikda joriy etilgan xodimlarning KPI tizimida aks ettirib boriladi.

Farmon va qarorga asosan, ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi va “Ijro.gov.uz” yagona nazorat tizimi orqali vazirlikka kelib tushgan topshiriqlar ijrosini doimiy nazorat qilib borish maqsadida vazirlikda tashkil etilgan **ijro nazorati bo‘limi qonunchilik hujjatlaridagi topshiriqlarni** ro‘yxatdan o‘tkazish hamda rahbarga axborot berishdan tashqari, ularning ijrochilari, muddati hamda bajarish mexanizmini ko‘rsatgan holda, topshiriqlarga munosabat tayyorlash hamda ijrochilarga yetkazilishini nazorat qiladi.

Shuningdek, qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarni tahlil qilish, o‘rganish hamda ijro natijalari va aniqlangan muammoli masalalar yuzasidan Vazirlar Mahkamasi, Adliya vazirligi va Hisob palatasiga axborot kiritib boradi.

Davlatimiz rahbari raisligida 2024-yil 28-noyabr kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda vazirlar, hokimlar va tarmoq rahbarlarining mas’uliyatini kuchaytirish, barcha topshiriqlarning ijrosini so‘zsiz ta’minlash bo‘yicha aniq vazifalar berilgandi. Barcha darajadagi rahbarlarga topshiriqlarni ijro muddatidan barvaqt bajarish bo‘yicha oldindan zarur chora-tadbirlar ko‘rish, belgilangan vazifani bajarish natijadorligini oshirish vazifasi yuklatildi. Shu bilan birga, har bir vazirlik, viloyat va tumandagi ishlarning tizimli hisobi yuritilishi va bu elektron platformaga o‘tkazilib, so‘rov ham, maosh ham shunga bog‘liq bo‘lishi yuzasidan tizim yaratish topshirig‘i berildi.

Vazirlik tizimida ham ijro intizomi bevosita xodimlarning KPI tizimiga bog‘langan. Topshiriqlarning ijro muddatini buzgan mas’ul xodimlarga ogohlantirish berish, KPI ballarini kamaytirish, “hayfsan” berish hamda lavozimdan ozod qilish kabi berish choralari ham ko‘rilmoqda.

Xususan, 2024-yil va joriy yilning o‘tgan davrida ijro intizomiga rioya etmagan uchun 9 xodimga “hayfsan” intizomiy jazo chorasi qo‘llangan. Shu bilan birga, vazirlikda nazoratdagi hujjatlar bilan ishlash, ijrosini ta’minlashda “Ijro.gov.uz” elektron tizimi markaziy apparat xodimlari, tizim tashkilotlari va 14 ta hududiy boshqarma bilan tizimli ishlash yo‘lga qo‘yilib, ijro intizomiga mas’ul xodimlar biriktirilgan.

2024-yilda “Ijro.gov.uz” elektron tizimi orqali vazirlik tomonidan 1947 ta topshiriq ijrosi ta’minlandi. Bu boradagi ishlar joriy yilda ham izchil davom ettirilmoqda. Bugunga qadar vazirlikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari bo‘yicha belgilangan 532 ta topshiriqdan 525 tasining ijrosi to‘liq ta’minlandi.

Bundan tashqari, vazirlikda qonunchilik hujjatlari ijrosini ta’minlashda sohani raqamlashtirish borasidagi ishlar ham katta yordam bermoqda. Bu borada Prezidentimizning qarori asosida Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish respublika

markazi tashkil etilgan va “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi ishlab chiqilgan.

“Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi davlat maqsadli dasturlariga kiritilgan obyektlar, shuningdek, ko‘p kvartirali uylarni qurishga ruxsat olishdan boshlab, qurib foydalanishga topshirishgacha bo‘lgan barcha jarayonni qamrab oladi. Ya’ni har bir obyekt bo‘yicha bajarilishi lozim bo‘lgan ishlarning muddatida amalga oshirilishi onlayn nazorat qilib boriladi.

“Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi negizida 16 ta platforma ishga tushirilgan. Ularning har birida vazirlikka yuklatilgan vazifa va topshiriqlar ijrosini tashkil etish va nazorat qilish imkoniyati yaratilgan.

Xususan, **“Davlat shaharsozlik kadastri” geografik axborot tizimi** orqali mamlakat hududida yuritilayotgan davlat shaharsozlik kadastri to‘g‘risida batafsil ma’lumotlarni olish mumkin (qizil chiziqlar, geologik rayonlashtirish, funksional zonalar sxemalari, hududning arxitektura rivojlanish rejalashtirishini tashkillashtirish loyihasi, bosh rejalalar, batafsil rejalashtirish loyihalarini).

“Qurilish sohasida davlat xizmatlarini ko‘rsatish” axborot tizimida qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasidagi barcha 16 ta davlat xizmati raqamlashtirilishi natijasida aholi va biznes egalariga uydin chiqmagan holda xizmatlardan foydalanish imkoniyati yaratildi. 2022-2024-yillarda **“Davxizmat” axborot tizimi** orqali 993,4 mingta obyekt bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatilgan.

Hududiy boshqarmalar va tuman (shahar) bo‘limlari tomonidan 8 turdagi davlat xizmatlari ko‘rsatish yuzasidan murojaatlar ijrosini ta’minlash bo‘yicha yagona axborot tizimi joriy qilingan.

“Qurilishda davlat nazorati” axborot tizimiga qurilish obyektlarida nazorat inspektorlari tomonidan aniqlangan barcha kamchilik fotosuratlari bilan birga tizimga onlayn kiritiladi va nazorat jarayoni avtomatlashtiriladi. Har bir obyekt uchun QR-kodli pasport joriy etilgan, ushbu kod orqali obyekt haqidagi barcha ma’lumotni real vaqt rejimida olish mumkin. Qurilish jarayoni tizim orqali raqamlashtirilib, qo‘shimcha ravishda obyektlar real vaqt rejimida kuzatib boriladi.

“Mening hududim” platformasi hududlarda fuqarolarning qulay hayot faoliyati muhitini kompleks shakllantirish, shaharsozlik va tadbirkorlik faoliyatida byurokratiya to’siqlarni bartaraf etish hamda zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida ishlab chiqilgan. Unda:

— aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlari va master rejalarni ishlab chiqishda jamoatchilik fikrini o‘rganish hamda ovoz berish mexanizmini joriy etish;

— hududlarda mahalliy aholi hamda tadbirkorlik subyektlarining shaharsozlik va tadbirkorlik faoliyatiga taalluqli tashabbuslarini kiritish imkoniyati yaratilgan.

“Mening uyim” avtomatlashtirilgan billing axborot tizimida hududlarda ko‘p kvartirali uy-joylarga xizmat ko‘rsatish jarayoniga majburiy badal to‘lovlarini avtomatlashtirilgan tarzda hisob-kitob qilish, onlayn elektron pul to‘lash, iste’molchilar yashayotgan uy to‘g‘risida ma’lumotnoma olish, qarzdorlikni ko‘rish, boshqaruv servis kompaniyasi (BSK) va xususiy uy-joy mulkdorlar shirkati (XUJMSH)ga murojaat jo‘natish, majlis bayoni va boshqa hujjatlarni axborot tizimida ko‘ra olish imkoniyati yaratilgan.

2022-yilda ishga tushirilgan ushbu billing tizimida 43 mingdan ortiq ko‘p kvartirali

uyning ma’lumoti kiritilgan, 1,3 million abonent uchun shaxsiy hisobraqam ochilgan, 1037 ta boshqaruv servis kompaniyasi, 268 ta uy-joy mulkdorlari shirkati tizimida faol holatda hisob yuritilmoqda.

Bu ishlarni izchil davom ettirgan holda 2025-yilda “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi negizida 3 ta dasturiy tizim yaratiladi, 6 ta tizim raqamlashtiriladi, davlat xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha 8 ta elektron tizim takomillashtiriladi.

Qonunchilik hujjatlarining puxta ishlab chiqilishi ham ijroni tashkil etishning muhim vositasidir. Bu borada normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish va huquqiy bo‘shliqlarni aniq mexanizmga asoslangan tizimga aylantirish borasida muayyan chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Tahlillar esa 2023-2025-yil may oyiga qadar 110 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqilganini ko‘rsatmoqda.

Qisqasi, qabul qilinayotgan har bir hujjat ijrosi natijasi aholi turmush darajasida o‘z aksini topishi kerak.

Birgina **aholini sifatli uy-joy bilan ta’minlash** borasida so‘nggi uch yilda Prezidentimizning farmoni, qaror hamda topshiriqlari ijrosi ta’minlanishi natijasida **221 ming xonadonli 5000 ga yaqin ko‘p kvartirali uy** foydalanishga topshirildi.

Ayniqsa, davlatimiz rahbarining 2021-yil 9-dekabrda “Yangi O‘zbekiston” massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni odamlar turmushini yanada yaxshilashga xizmat qilmoqda. Farmonda belgilangan vazifalarning izchil ijrosi tufayli 2022-yilda tashkil etilgan 29 ta “Yangi O‘zbekiston” massivi soni 2024-yilda 52 taga yetkazildi. Ularda **28 ming xonadonli 803 ta uy** qurildi. 2025-yilda “Yangi O‘zbekiston” massivlarida **28 ming xonadonli** uylar barpo etilmoqda.

Shu o‘rinda pudratchi tashkilotlar yangidan qurayotgan uylarning topshirish muddati kechikib, aholi to‘lagan pullar muzlab turgani, shartnomalar asosan, quruvchi manfaatiga xizmat qilayotgani kabi og‘riqli muammolar borligini ham aytib o‘tish kerak.

Shu kabi holatlar va ayni vaziyat uy-joy qurilishida aholi mablag‘i hamda huquqlarini himoya qiladigan yangi tartib joriy etishni taqozo etayotgandi. Prezidentimizning joriy yil 27-yanvardagi “Uy-joy qurilishi sohasini yanada rivojlantirish, turar va noturar joy obyektlarini ulush kiritish asosida qurish jarayonini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni masala yechimida ayni muddao bo‘ldi.

Unda turar va noturar joy obyektlarini ulush kiritish asosida qurish jarayonini yanada tartibga solishga qaratilgan aniq mexanizmlar belgilandi. Avvalo, bunda jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari himoya qilinilishini ta’minlash ko‘zda tutilgan. Qolaversa, uy-joylarni ulush kiritish va ipoteka krediti asosida sotib olishning ishonchli va samarali imkoniyatlari yaratilmoqda.

Bizdan esa ushbu farmon bilan yaratilgan imkoniyatlarni jamoatchilikka yetkazish va joylarda ijrosini to‘g‘ri tashkil qilish talab etiladi.

Tartibli qurilish, avvalo, reja bog‘liq

Albatta, tartibli qurilish, avvalo, bosh reja bog‘liq. Shu maqsadda 2022-2024-yillarda 388 ta bosh reja ishlab chiqildi. 1660 tasi esa qishloq aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlaridir.

Prezidentimizning 2023-yil 11-sentabrda “Shaharsozlik faoliyati sohasida davlat boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish hamda 2023-2027-yillarda aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish dasturlarini tasdiqlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga binoan joriy yilda 161 ta shahar va shaharchaning bosh rejalari hamda 108 ta qishloq (ovul) aholi punkti hududlarini shaharsozlik jihatidan rivojlantirish sxemalarini ishlab chiqish belgilangan.

Bugunga qadar tasdiqlangan dasturga kiritilgan 48 ta shaharchadan 32 tasining bosh rejai to‘liq ishlab chiqilib, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika arxitektura-shaharsozlik kengashi muhokamasida ko‘rib chiqilib, ma’qullandi.

Kelgusida bosh rejalarni mutlaqo yangi ko‘rinishda, ya’ni **GIS formatida** ishlab chiqilishini ta’minlash borasida ishlar davom ettirilmoqda. Barcha bosh reja geoaxborot tizimiga raqamli formatda yuklanadi hamda ushbu tizimda shaharlarning raqamli egizagi yaratiladi. Buning uchun joriy yilda 12 ta shahar va 46 ta shaharcha bosh rejai, 94 ta qishloq sxemasi ushbu tizimga joylashtiriladi.

“Shaffof qurilish” tizimida shaharlarning raqamli egizagi asosida ishlaydigan **“Raqamli shaharsozlik kengashi”** platformasi ishlab chiqiladi. Obyektlarga muhandislik kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish uchun texnik shart berish jarayonlari ham raqamlashtiriladi.

Qisqasi, topshiriqlar va hujjatlar bilan ishlash vazirligimizda yanada kuchaytiriladi. Bu borada mutasaddi rahbarlar va mas’ul xodimlar mas’uliyati keskin oshiriladi. Zero, hujjatlar va topshiriqlar ijrosini o‘z vaqtida va sifatli bajarish har bir xodimning ustuvor vazifasidir.

Davlatimiz rahbari nutqlarida qarorlar ijrosi, ijro intizomi va shaxsiy javobgarlik masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Ushbu fikrlar rahbarlar va mas’ul shaxslar uchun muhim yo‘l-yo‘riq bo‘lib, ularning faoliyatida samaradorlik va xalq ishonchini ta’minlashda asosiy omildir.

Albatta, xalqimizni rozi qilish yo‘lida hali qiladigan ishimiz ko‘p. Buning uchun, eng avvalo, Prezidentimiz farmon va qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini og‘ishmay, so‘zsiz ta’minlash talab qilinadi. Bunga kuchimiz, salohiyatimiz va imkoniyatimiz yetarli. Shunday ekan, o‘zimizga bildirilgan ishonchni oqlash uchun bor imkoniyatimizni ishga solamiz.

SOHADA MAGISTRLIK DASTURI OCHILAYOTGANI MUHIM STRATEGIK TASHABBUSDIR

Insoniyat taraqqiyotning eng yuqori cho‘qqisiga ko‘tarilgan hozirgi pallada obihayotga ehtiyoj muttasil ortib boryapti. Shu bilan birga, Markaziy Osiyo mintaqasidagi barcha mamlakatning suv yo‘li va suv olish manbalari o‘zaro bog‘liqligi qo‘shni davlatlar bilan doimiy tarzda suv diplomatiyasi yuritish zarurligini tasdiqlaydi.

“Suv diplomatiyasi” ilmiy tushuncha sifatida bizga endi kirib kelmoqda. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tashabbusi bilan Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universitetida o‘tkazilgan xalqaro konferensiyada aynan shu tushuncha bilan bog‘liq masalalar muhokama qilindi.

Konferensiyada BMT Taraqqiyot dasturi, Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi, Germaniya xalqaro hamkorlik jamg‘armasi, Xalqaro iqlim tashabbusi, Global yashil o‘shish instituti va boshqa xalqaro hamda milliy tashkilotlar vakillari ishtirok etdi.

Anjumanda Markaziy Osiyo mintaqasida suv resurslaridan barqaror va samarali foydalanish, transchegaraviy suv hamkorligini rivojlantirish, suv diplomatiyasi vositasida mintaqaviy barqarorlikka erishish masalalari muhokama qilindi. O‘zbekistonda suv diplomatiyasi mutaxassisligi bo‘yicha magistrlik dasturi ochilayotgani alohida e’tirof etildi. Ushbu tashabbus sohadagi muhim strategik qadamlardan biri sifatida baholandi.

Mazkur magistrlik dasturi Suv xo‘jaligi vazirligi tashabbusi bilan amalga oshirilmoqda. Xususan, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti hamda “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti o‘rtasida 2025-yildan ushbu

Every Drop” loyihasini taqdim etdi. Ushbu loyiha doirasida sun‘iy yo‘ldosh ma’lumotlari va GIS texnologiyalari orqali qishloq xo‘jaligi yeridagi bug‘lanish jarayonini kuzatish orqali fermerlarning suvdan qanchalik samarali foydalanayotganini baholash mumkin. Shuningdek, ushbu usul orqali fermerlarning suv samaradorligini 0 dan 1 gacha baholash usuli yaratilgani ham aytiladi. Loyiha doirasida samarali usullar boshqa hududlarga



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Amudaryoning pastki havzasida suv resurslarini integratsiyalashgan boshqaruvga oid dastur ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarurligi ta’kidlandi. Mazkur hudud Buxoro va Xorazm viloyatlari hamda Qoraqalpog‘istonni qamrab oladi. Bu yerda 1 million 50 ming 910 gektar sug‘oriladigan yer va 957 ming 260 gektar ko‘l, botqoqlik mavjud. Ushbu hududda suv tejovchi texnologiyalar va suv boshqaruvini takomillashtirish orqali irrigatsiya uchun sarflanayotgan suv miqdori qisqartirilishi hamda saqlangan suv ekotizimlarga yo‘naltirilishi zarurligi qayd etildi.

mutaxassislikda magistrlik dasturini ochish yuzasidan hamkorlik memorandumini imzolandi. Dastur suv resurslarini boshqarish va xalqaro munosabatlار sohalarini birlashtirgan holda kelajakda yuqori malakali, muloqotchanlik qobiliyati yuqori, geosiyosiy vaziyatni tushunadigan mutaxassislar yetishtirishni maqsad qiladi.

“O‘zbekkosmos” agentligi direktori o‘rinbosari Muhiddin Ibrohimov “Tracking

tatbiq qilinishi orqali umumiy samaradorlikni oshirish imkoniyati borligi qayd etildi.

Markaziy Osiyo davlatlararo suv xo‘jaligini muvofiqlashtirish komissiyasi ilmiy-xorbot markazi direktori Dinara Ziganshina transchegaraviy suv resurslari bo‘yicha hamkorlikning ahamiyatiga to‘xtalib o‘tdi. U Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida suv resurslaridan tinch, barqaror va muvofiqlashtirilgan tarzda foydalanishda mazkur komissiya faoliyati

hamda saqlangan suv ekotizimlarga yo‘naltirilishi zarurligi qayd etildi.

Anjumanda O‘zbekistondagi RAMSAR botqoq hududlarini muhofaza qilishga doir strategik hujjatlar ishlab chiqilishi zarurligi ma’lum qilindi. Ma’ruzada mutaxassislar o‘rtasida kanal, daryo va botqoqlar atamallari aniq farqlanmasligi, strategik ahamiyatga ega zonalarini qamrab olgan yagona rasmiy xarita yo‘qligi hamda monitoring tizimi yetarli emasligi qayd etildi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun aniq terminologiyani belgilash, xalqaro standartlarga mos xarita tayyorlash va muntazam monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish lozimligi ta’kidlandi.

Konferensiya yakunida kelgusida yangi loyihalarni amalga oshirish maqsadida xalqaro hamkor tashkilotlar bilan aloqalarni yanada mustahkamlashga kelishib olindi.

Nargis XOLMAMATOVA,
Suv xo‘jaligida islohotlar markazi yetakchi mutaxassisi

Press-tur

Joriy yil 11-13-iyun kunlari “O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyati tashabbusi bilan Qashqadaryoda joylashgan Hisor markaziy geologiya qidiruv ekspeditsiyasiga press-tur tashkil etildi.

TEJAMKORLIK, ANIQLIK VA UNUMDORLIK

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 21-apreldagi “Geologiya sohasiga investitsiyalarni faol jalb etish, tarmoq korxonalarini transformatsiya qilish va respublika mineral-xom ashyo bazasini kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bilan Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ tashkil etilgan edi.

Bugun mazkur jamiyat zamonaviy va yuqori samarali uskunalar, ilg‘or texnika va innovatsion texnologiyalar orqali hududlarda geologiya-qidiruv ishlarini jadal bajaryapti. Shu orqali mamlakat mineral xomashyo bazasini boyitishga katta hissa qo‘shmoqda. Jumladan, o‘tgan davrda yer qa’rini geologik o‘rganish, rangli qimmatbaho metallar va boshqa foydali qazilma maydonlarida geologiya-qidiruv ishlarini tashkil etish borasida jiddiy o‘zgarishlar bo‘ldi. Xususan, rangli va qimmatbaho metallarning istiqbolli maydonlarini topish uchun ilmiy-tematik ishlar bajarildi. Qolaversa, resurs borligi prognoz qilingan maydonlarning mayda, o‘rta va yirik ko‘lamli geologik xaritalari yaratildi. Bu kabi ishlar mineral xomashyo bazasini kengaytirishga xizmat qiladi.

2025-yilda 100 dan ortiq loyiha bo‘yicha qidiruv ishlarini rejalashtirilgan. Hozir dastur doirasida oltin, kumush, mis, qo‘rg‘oshin, rux, volfram kabi rudali foydali qazilmalar hamda norudali mineralar – qurilish materiallari va kimyo sanoatida qo‘llanadigan resurslar bo‘yicha ham ishlar bajarilmoqda.

Soha vakillarining axborotiga ko‘ra, bugun kompaniya zamonaviy uskunalari orqali 1200-1900 metr chuqurlikkacha burg‘ilash ishlarini bajarmoqda. Avval namunalar faqat 50-60 foiz darajada olinayotgan bo‘lsa, hozirgi texnologiyalar yordamida bu ko‘rsatkich deyarli 100 foizga yetgan. Bu esa tahlillar aniqligini oshirib, yo‘qotishlarni kamaytiradi. Shuningdek, jamiyat zamonaviy laboratoriyalar bilan jihozlangan. Qolaversa, kimyoviy elementlar soni ham oshgan. Tahlil jarayonlari 60-70 ta elementdan ortgani aytilmoqda. Bu esa yerdagi noyob elementlar va kamyoq metallar bo‘yicha aniq, sifatlil ma’lumotlar olishga xizmat qiladi.

— Hisor markaziy geologiya-qidiruv ekspeditsiyasi (MGQE) mamlakatning janubiy hududida joylashgan. U Qashqadaryo va Surxondaryo dala ekspeditsiyalarini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, Qashqadaryo, Surxondaryo va Samarqand viloyatlarining janubiy hududida qattiq foydali qazilmalar bo‘yicha geologiya-qidiruv ishlarini bajaradi, — deydi Qashqadaryo dala geologiya qidiruv ekspeditsiyasi bosh geologi Zoyir Sattorov. — Shu paytga qadar ekspeditsiya faoliyati davomida yurtimizning turli viloyatida geologiya-qidiruv ishlarini bajargan. Jarayonda bir nechta ma’danli va noma’dan foydali qazilma konlari topilgan.

Bundan tashqari, ko‘plab istiqbolli maydonlar aniqlangan. Bu maydonlar prognoz resurslar hisoblanadi va istiqbolli maydonlar qatoriga kiritilgan.

Joriy yilda Hisor markaziy geologiya qidiruv ekspeditsiyasi 24 ta loyiha doirasida geologiya-qidiruv ishlarini rejalashtirgan. Qashqadaryo dala ekspeditsiyasi tomonidan 7 ta loyiha doirasida ishlar bajarilmoqda. Jumladan, volfram va oltin kabi qimmatbaho resurslarni ilgarilama o‘rganish, rux va grafit ma’danlari, shuningdek, kaliy tuzlari bo‘yicha baholash ishlarini uddalandi.

Hisor markaziy geologiya qidiruv ekspeditsiyasi, asosan, oltin, volfram, rangli va noyob metallar hamda noruda foydali qazilmalarni izlash, baholash bilan shug‘ullanadi. Geologiya-qidiruv ishlarini yer



usti va yer osti tog‘ lahimlari hamda burg‘ilash ishlarini yordamida bajariladi. Ekspeditsiyaning geologik ishlarini asosan og‘ir sharoitdagi tog‘li hududlarda amalga oshiriladi.

Mutaxassislar ma’lum qilishicha, 2019-2024-yillarda Hisor markaziy geologiya-qidiruv ekspeditsiyasining Qashqadaryo dala ekspeditsiyasi tomonidan Madmon ma’danli maydonidagi Akba oltin konida batafsil geologik ishlar bajarildi. Ushbu ishlar Akba oltin konining qanot va chuqur gorizontlarini baholash, Sharqiy Kaylyuk oltin namoyonida dastlabki tahlil, shuningdek, Shimoliy Akba uchastkasini o‘rganish loyihasi doirasida bajarildi. Natijada Akba oltin konining sanoatbop zaxiralari rasman hisobga olindi.

Hisoblangan oltin zaxirasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi davlat zaxiralari komissiyasida ko‘rib chiqilgan. Natijada C1+C2 toifa bo‘yicha 13 tonnadan ortiq oltin zaxirasi davlat zaxiralari balansiga topshirilgan.

Hozir Akba oltin konining g‘arbiy tomonida Sharqiy Kaylyuk oltin namoyonida dastlabki

baholash ishlarini bajarilmoqda. Shimoliy Akba uchastkasida esa yer usti tog‘ lahimlari va kolonkali burg‘i quduqlari orqali izlanishlar davom ettirilyapti. Akba oltin koni atrofidagi geologiya-qidiruv ishlarini natijasiga ko‘ra, bu konning yon qanotlari o‘rganilib, kelajakda 50 tonnaga yaqin oltin zaxirasi aniqlanib, respublika xomashyo bazasi rivojlantirilishiga katta hissa qo‘shiladi.

— Joriy yilda Hisor markaziy geologiya qidiruv ekspeditsiyasi doirasida 31 ming 970 kub metr hajmda yer usti tog‘-lahim ishlarini, 2900 pogonometr yer osti lahim qurilishi hamda 72 ming pogonometr burg‘ilash ishlarini bajarish rejalashtirilgan, — deydi tajribali geofizik Botir Hakimov. — Joriy yilda foydali qazilmalar zaxirasi bo‘yicha salmoqli ko‘rsatkichlarni bajarish maqsad

qilingan. Jumladan, oltin — 157 tonna, kumush — 190 tonna, mis — 270 ming tonna, qo‘rg‘oshin — 42 ming tonna, rux — 48 ming tonna, volfram — 8500 tonna, litiy — 5000 tonna, ko‘mir zaxirasini 6000 tonnaga ko‘paytirish ko‘zda tutilgan. Buning uchun 131 ta loyiha amalga oshiriladi. Shundan 50 tasi davlat budjeti, 24 tasi OKMK AJ, 63 tasi NKMK AJ mablag‘i hisobidan ishga tushiriladi. Ushbu loyihalar asosida geologiya-qidiruv ishlarini bajarilishi rejalashtirilgan.

Press-tur davomida ishtirokchilar tosh maydalash sexida kern namunalari tayyorlash hamda Akba oltin uchastkasida geofizik va burg‘ilash jarayoni bilan tanishdilar. Sexda namunalari yer usti va yer osti burg‘ilashidan olinishi, maydalanishi va laboratoriyaga tahlil uchun jo‘natilishi xususida ma’lumot berildi.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Obod manzillar

Loysuvoqli pastqam uylar, yozda chang, qishda loyga botgan ilon izi tor ko‘chalar, qo‘lbola simyog‘ochlar... Bu eski qishloq manzarasini yodga soladi. Bugun bu borada ko‘p narsa o‘zgardi. Qishloqlarda ham aholi turmush tarzi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Joriy yilning o‘zida Farg‘ona viloyatidagi og‘ir hududlardagi 99 ta mahallada sug‘orish tizimini o‘tkazish uchun quduq qazish, elektr ta’minoti va yo‘l infratuzilmasini yaxshilash ishlari alohida e’tibor qaratilmoqda. Asosiy maqsad odamlar og‘irini yengil, uzog‘ini yaqin qilish.

Quva tumanidagi “Qaqir” mahalla fuqarolar yig‘inidagi bunyodkorlik ishlarini ko‘rgan kishi uni chekka qishloq emas, shahar deb o‘ylaydi. Aytishlaricha, keyingi yarim asrda qishloq aholisining hayot tarzi uchun muhim bo‘lgan biror infratuzilma tarmog‘i qurilmagan. O‘tgan asrning yetimshinchi yillarida bunyod etilgan maktab, savdo va xizmat ko‘rsatish tarmoqlari bugungi kun talabiga mutlaqo javob bermasdi. O‘tgan qisqa vaqt ichida bu yerdagi manzara tubdan o‘zgardi. Qishloq katta qurilish maydoniga aylandi. Yo‘lsozlar, suv tarmoqlari tortayotganlar, daraxt ekayotgan tashabbuskorlar sa’y-harakati bir dam bo‘lsa-da, to‘xtagani yo‘q. Bunday bunyodkorlik odamlar ruhiyatini ko‘tardi. Ertangi kunga ishonchi yanada mustahkamlandi.

— Mahallamiz qiyofasi tom ma’noda o‘zgarib ketmoqda, — deydi mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Qobiljon Yunusov. —



TOMORQADAN EKSPORTGA QAQIR GULLARI DUNYO BOZORIDA HAM O‘RNINI TOPYAPTI

Ilk bor oqova suv tarmoqlari qurildi. Bundan tashqari, 7 kilometr masofaga ichimlik suv tarmog‘i tortilyapti, 4 ta ko‘p qavatli turar joy binosi, o‘ttizdan ortiq zamonaviy savdo va xizmat ko‘rsatish maskani qurilyapti. Tadbirkor sa’y-harakati bilan davlat-xususiy sherikligi asosida ko‘p qavatli ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish binosi qad rostlayapti. Binoning birinchi qavatida mahalla fuqarolar yig‘ini idorasi joylashadi. Yana bir tadbirkor zamonaviy to‘yxona, umumiy ovqatlanish majmuasini bitkazish arafasida.

Mahalladagi eski maktab o‘tgan asrning 70-yillarida qurilgan. Uning poli, kommunikatsiya tizimlari yaroqsiz bo‘lib qolgani aholining haqli e’tiroziga sabab bo‘layotgandi. O‘quvchilar ikki-uch smenada o‘qishga majbur edi. Endi bu muammolarga yechim topildi. Mahallada ming o‘rinli zamonaviy maktab binosi qurilmogda. Hozir bunyodkorlik ishlarini jadal davom etyapti. Yo‘l chetlariga beton ariqlar o‘rnatilmoqda. Piyodalar uchun yo‘laklar, sayilgoh, bolalar maydonchalari qurish borasida istiqbolli

loyihalar amalga oshirilyapti. Belaruslik investor tashabbusi bilan 150 o‘rinli tikuvchilik majmuasi bunyod etilyapti.

— Qishlog‘imizdagi o‘zgarishlarga har jihatdan havas qilyapman, — deydi mehnat faxriysi Jaloliddin Ergashev. — Yoshim saksonga yetdi. Ammo bu qadar obodlikni aslo ko‘rmaganman. Avvaliga oddiy bir qishloqda 5-7 qavatli uy-joy qurilishiga hech kim ishonmagandi. Ammo bu haqiqatga aylandi. Nasib qilsa, nabiralaringma shu yerdan uy olib beraman. Bularning barchasi tinchlik, totuvlik,

hamjihatlik mahsuli. Qulay imkoniyatlar qishloqlarimizni shaharga aylantirib yuboryapti.

Mazkur ishlar doirasida kam ta’minlangan, ijtimoiy himoyiga muhtoj oilalarni qo‘llab-quvvatlash, munosib shart-sharoit yaratib berishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu o‘ksik qalblarga quvonch, shodlik tuyg‘ularini olib kirdi. Hozirga qadar ijtimoiy himoyaga muhtoj 4 oilaning uy-joyi ta’mirlab berildi.

— Turmush o‘rtog‘im bilan yolg‘iz yashaymiz. O‘ttiz uch yil boshlang‘ich

sinflarga dars berib, nafaqaga chiqqanman, — deydi faxriy muallim Habibaxon Hasanova. — Keksalik ekan, ro‘zg‘ordan orttirib, uy-joyimizni ta’mirlashga imkon topa olmayotgandik. Mahallamizda bunyodkorlik ishlarini boshlangan kun mutasaddilar kelib, xonadonimizni ta’mirlash, har jihatdan qulay sharoit yaratib berish taklifini aytdi. Uyimiz tomi ko‘tarildi, eshik va derazalari almashtirildi. Umrlaridan baraka topsin, mana, hamma sharoiti bor chiroyli uyga ko‘chib o‘tib yashayapmiz. Katta rahmat.

Qaqir mahallasida gul va ko‘chatlar yetishtirish an’anasi quloch yoygan. Boshlangan ishlar doirasida bundan ham unumli foydalanish choralarini ko‘rilyapti. Ya’ni bu yerni namunal mahallaga aylantirish maqsadida gulchilik va ko‘chatchilik rivojlantiriladi. “Bir mahalla — bir mahsulot” tamoyili asosida turfa gullar, manzarali-dekorativ nihollar parvarishlashga alohida e’tibor berilmogda. Zarurat bo‘lganida issiqxonalar qurib, uning imkoniyatidan unumli foydalanish borasida ham tushuntirish, targ‘ibot ishlarini olib borilyapti. Ayni kunda 200 dan ortiq xonadonda issiqxona qurildi. Turfa gul ko‘chatlari, manzarali daraxtlar parvarishlanayapti. Ular nafaqat ichki bozorga sotilyapti, balki eksport ham qilyapti.

— O‘n sotix tomoqimizdagi issiqxonada gul yetishtirish bilan shug‘ullanamiz, — deydi Amirxon Teshaxo‘jayev. — 2 sotix maydonda bahorgi lola yetishtirib, mavsumda 100 million so‘mdan ortiq daromad oldik. Bundan tashqari, atirgul, manzarali gul ko‘chatlaridan ham yaxshi daromad qilyapmiz. Mahallamizda gulchilar uchun savdo va ko‘rgazma rastalari qurilayotgani ishlarimizni salmog‘ini yaxshilash, yangi tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash imkoniyatini beradi.

“Qaqir” mahalla fuqarolar yig‘inida har kunda bir o‘zgarish, yangiliklar bo‘y ko‘rsatib turibdi. Quva tomonlarga yo‘lingiz tushsa, shahar bilan bo‘ylashayotgan qishloqqa bir kelib keting.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



27-iyun –

Matbuot va ommaviy axborot
vositalari xodimlari kuni

EKRANDAN EKRANGA: QAYSI PLATFORMA SIZNIKI?



Abu Bakir O‘ROZOV,
jurnalist

Ta’bir joiz bo’lsa, qaysi kontent kuchli bo’lsa, dunyo uning atrofida aylanadi. Lekin tok-shouda ishtirok etgan barcha ekspertning fikri bunday emas.

Mavzu juda qiziq va dolzarb. Sababi, bu faqat bizga yoki bizning muhitga tegishli emas, butun dunyoda kechayotgan jarayondir. Shunday ekan, uni o’rganish, tahlil va tadqiq qilish fikri ustuvorlik kasb etadi.

Zotan, zamon rivojlanib, raqamli texnologiyalar hayotimizga jadal kirib kelishi bilan axborotni iste’mol qilish va tarqatish uslublari ham o’zgarib bormoqda. Bu jarayon faqat O’zbekistonda emas, balki butun dunyo mediasanoatida kuzatilmoqda. Ilgari aholi axborotni asosan, televideniye va radio orqali olib, muayyan vaqt va kontentga bog’liq holda yashagan bo’lsa, bugun raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlar bu o’rinni egallab bormoqda.

Xususan, yosh avlod axborot manbasi sifatida televideniye dan ko’ra, YouTube, TikTok, Telegram va Instagram kabi platformalarni afzal ko’rmqda.

Dunyo miqyosida raqamli platforma foydalanuvchilari soni keskin oshmoqda. Masalan, 2024-yil oxirida Netflix dunyo bo’yicha 269,6 million obunachiga ega bo’ldi. YouTube kuniga 5 milliard videorolik ko’riladigan platformaga aylandi. TikTok esa har oylik 1,5 milliard faol foydalanuvchiga ega. Bu platformalar o’rgimchak to’ridek dunyo aholisining o’ngini egallamoqda. Tahlilchilar, mediabrend egalari esa qo’lida smartfon tutgan avlodga “eski” efirlar qiziq emasligini anglab yetdi va yangi evrilishlarga qo’l uryapti. Misol uchun, CNN, BBC, The Guardian kabi nufuzli axborot agentliklari ham YouTube, Facebook va Instagram orqali o’z efrinini jonli translyatsiya qilishni yo’lga qo’ygan. Natijada ularning keskin qisqarayotgan auditoriyasi muayyan ma’noda “tinchlandi”.

YToshlar nega raqamli platformalarni tanlayapti?

Tok-shouda ishtirok etgan ekspertlar fikricha, raqamli platformalar, avvalo, axborot va ko’ngilochar kontentni istalgan vaqtda, istalgan joyda, istalgan qurilma orqali ko’rish imkoniyatini beradi. Bu erkinlik esa televideniye dav mavjud emas.

Ikkinchidan, ijtimoiy tarmoqlarda kontent interaktiv — foydalanuvchi layk bosadi, izoh qoldiradi, o’z videosini qo’yadi. Televideniye esa auditoriya passiv.

Uchinchidan, raqamli platformalarda kontent tanlovi keng va xususiyatlashgan. YouTube yoki TikTok algoritmlari foydalanuvchining qiziqishiga mos videolarni tavsiya qiladi.

Xalqaro mediatahlilchi Sem Xarris bunday deydi: “Zamonaviy yoshlar axborotni faqat ko’rishni emas, unda ishtirok etish, fikr bildirish, ijod qilishni xohlaydi. Buni esa televideniye taqdim etish imkoniga ega emas”.

“Adolat” ijtimoiy-siyosiy gazetasi bosh muharriri Islom Hamroyev juda o’rinli va aniq fikrni ilgari surdi: “Nega biz bugungi yoshlarning ortidan ergashishimiz kerak? Nima uchun ular bizning ortimizdan ergashmaydi? Ilgari yoshi kattalardan doim o’rnak olinar, ularning an’analari davom ettirilardi”.

To’g’ri fikr, ustoz jurnalistning kuyunib gapirganicha bor. Lekin... ortimizdan yoshlarni ergashtirishga nima qarshilik qilaypti? Qanday

“O’zbekiston” telekanalining “Munosabat” tok-shousida ishtirok etdim. Ko’tarilgan mavzu nafaqat jurnalist yoki soha xodimlari, balki butun jamiyatni o’yga toldiradigan dolzarb yo’nalishda bo’ldi: “Televideniye o’tmishga aylanmoqdam? Yosh avlod nimani tanlayapti?”. Bir qarashda hamma “ha” deb javob berishi aniq. Sababi bugungi avlod internet olamiga to’liq sho’ng’ib bo’ldi. Televizor oldidagi o’rindiqlar bo’shayapti, majoziy ma’noda aytganda, ekran eski, avlodlar esa yangilanyapti. Axborot maydoni — bu endi katta studiya emas, har bir qo’ldagi smartfon dunyo axborotini jamlagan studiyaga aylanmoqda.

to’sqinliklar bor? Hech qanday to’siq yo’q. Quruq gaplarda emas, amalda nega ergashtira olmayapmiz yoshlarni? Aksincha, ularning xohish va istaklari ortidan, zamonaviy til bilan aytganda, trend ortidan ergashyapmiz degan o’rinli e’tiroz ham bildirildi. Yoshlar bilan raqobatlashish uchun, avvalo, ularning orzusi, qiziqishi va dardi nimaligini bilish kerak. Shunday ekan, ular bilan hisoblashishga majburmiz.

O’zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti o’qituvchisi Nishona Isayevaning aytishicha, yoshlar axborotni iste’mol qilishda vaqt va joy cheklolisiz erkinlikni qadrlaydi. Bu imkoniyatni esa aynan raqamli platformalar bera oladi. Shu bois, axborotni izlash, tahlil qilish va unga munosabat bildirish borasida ham yoshlar faollashmoqda. Bu tendensiyaning televideniye to’xtatishi qiyin, balki o’z uslubini zamonaviylashtirishi kerak.

Televideniye o’z auditoriyasini saqlab qoladimi?

Juda o’rinli va dolzarb savol. Bu muhokama ancha yildan beri soha mutaxassislari va ekspertlarni o’ylantirib kelmokda. Hammaning fikri har xil. Kimdir rasmiy telekanallar o’z uslubida ishini



davom ettiraverishi kerak, desa, boshqa biron televideniye zamonga moslashishi, internetga integratsiyalashishi kerak deydi.

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi bo’lim boshlig’i Ma’murjon Parpiyevning qayd etishicha, televideniye umuman yo’qolib ketmaydi. Lekin o’zgarishi shart. Hozir ko’p telekanallar YouTube platformasida o’z sahifalarini ochgan, mobil ilovalar ishlab chiqqan.

“UzReport TV”, “MY5”, “Sevimli TV”, “Zo’r TV” kabi telekanallar YouTube platformasida million martalab ko’riladi. Bundan tashqari, televideniye striming, interaktiv ko’rsatuvlar va jonli efr orqali raqobatbardoshligini saqlab qolishi mumkin. Televideniye raqamlashmay, interaktiv uslublarni joriy qilmay turib, yoshlar orasida auditoriyasini saqlab qololmaydi.

— YouTube platformasining o’zbek segmentidagi video va qisqa lavha (reels) larning nomi odamni vahimaga soladi. U yerdagi videolavhalar bilan ijtimoiy-siyosiy yo’nalishdagi milliy kontentlar raqobatlasha oladimi? Raqamli platforma kontenti ustidan to’liq nazorat qilish muammosi bor, — deydi xalqaro sharhlovchi Sharofiddin To’laganov. — Yoshlar orasida yolg’on axborot, psixologiyaga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi videolar tarqalishi kuzatilmoqda. Masalan, TikTok tarmog’ida ba’zi chalg’ituvchi trendlar, yoshi kichiklar uchun zararli videolar ham bor.

Shu sababli raqamli mediasavodxonlikni oshirish, platformalarning mas’uliyatini kuchaytirish muhim.

Darhaqiqat, kontent ta’siri juda kuchli. Chunki u inson ongi, ruhiyatini boshqarishga qodir. Axborot maydonida jim qolish o’z ixtiyoringni boshqalarga topshirish degani. Yoshlar esa bu jangda eng muhim obyek.

“

Hozir yoshlar televizor oldida o’tirib, efr vaqtini kutishni deyarli to’xtatgan. Masalan, 2024-yilda O’zbekistonda Instagram foydalanuvchilari soni 9,4 millionga yetdi. Bu aholining taxminan 27 foizi. Eng katta foydalanuvchilar guruhi 18-24 yoshlilar bo’lib, ular 41,4 foizni tashkil etadi.

Bugun kontentni iste’mol qiluvchi emas, uni ishlab chiquvchi bo’lishni istagan avlod paydo bo’ldi. Bu avlod efr oldida emas, platforma yuzasida yashamoqda. Shunday ekan, televideniye o’z o’rnini saqlab qolishi uchun, avvalo, yoshlarni tinglashi va ular bilan bir tilda gaplasha olishi kerak.

Maqolani yozish jarayonida shu yo’nalishdagi xalqaro tajriba bilan qiziqdik.



AQSHda 2020-yilda telekanallar auditoriyasi 2019-yildagiga nisbatan 10 foiz qisqargan. Buyuk Britaniyada o’rtacha 1 yillik televizor ko’rish vaqti 11 daqiqaga kamaygan. Aksincha, striming platformalar 2020-yilda o’z auditoriyasini keskin oshirishga muvaffaq bo’ldi.

Tahlillar televideniye tomoshabini kamayib borayotganini ko’rsatmoqda. Bu an’anaviy OAV oldiga yangi chaqiriqlar ko’ymqda va mediastrategiyalarni ishlab chiqishni talab qilmoqda.

Tahlillarimizga ko’ra, televideniye hozir ham global mediabozorda muhim rol o’ynamoqda. 2029-yilga borib, televideniye global auditoriyasi soni 5,5 milliard kishini tashkil etishi prognoz qilinmoqda. Bu 2024-yildagiga nisbatan 3,8 foiz ko’p.

“Zenith” xalqaro agentligi ma’lumotiga ko’ra, 2009-yilda sayyora aholisi har kuni 188 daqiqa vaqtini televizor ko’rishga, 48 daqiqani esa internet uchun sarflagan bo’lsa, bu ko’rsatkich 2020-yilga kelib, TVda 168, internetda 180 daqiqani tashkil etdi.

Tadqiqotlarga asosan, an’anaviy ommaviy axborot vositasi (bosma va televideniye) auditoriyasi 2017-yilgi 63 foizdan 2022-yilda 51 foizgacha qisqargan.

Alohida davlatlar misolida ko’rsak, AQSHda telekanallar har yili o’rtacha 2-3 foiz tomoshabinini yo’qotmoqda. Xitoy va Hindistonda TV mashhur va ommabopligini saqlab qolayotgan bo’lsa-da, bu yerda ham aksariyat foydalanuvchilar, ayniqsa, yoshlar onlayn platformalarni tanlamqda.

Natijada global reklama bozori ham asta-sekin an’anaviy OAV o’rniga internet va ijtimoiy tarmoqlardagi reklama beruvchilar bilan hamkorlikni kengaytiraypti.

Masalan, 2024-yilda global onlayn reklama bozori 800 milliard dollardan oshdi. Telekanallarda namoyish etilayotgan reklamalar esa qiymati 168 milliard dollarni tashkil qilgan. O’tgan yili umumiy reklama bozorining 72,9 foizini raqamli reklama tashkil etgan bo’lsa, bu ko’rsatkich 2025-yilda 76,8 foiz bo’lishi taxmin qilingan. TVda esa aksincha — 2024-yilda uning ulushi reklama bozorida 16 foiz bo’lgan.

O’zbekistonda ham oxirgi yillarda internet foydalanuvchilari soni keskin oshib bormoqda. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi ma’lumotiga ko’ra, 2017-2025-yillarda ular soni 14,7 milliondan 32,7 millionga oshgan. Xususan, “Telegram”dan 28 million, “Odnoklassniki”dan 19,2 million, “Facebook”dan 2,3 million, “VKontakte”dan 1,5 million, “LinkedIn”dan 850 ming, “Twitter”dan 250 ming o’zbekistonlik foydalanmoqda.

Mazkur raqamlar axborot olishning asosiy manbasi sifatida ijtimoiy tarmoqlar va internet platformalari an’anaviy OAVlar pozitsiyasini egallayotganini ko’rsatmoqda. Bu esa telekanallar oldiga bir qancha vazifalar qo’yadi: ular zamonaviy raqamli platformalarga integratsiya qilinib, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalariga auditoriyani yanada keng jalb qilishi lozim.

Raqamli davrda omon qolish strategiyasi

O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori Amrullo Karimovning qayd etishicha, birinchi navbatda, raqamli platformalarga integratsiyani kuchaytirish lozim. Auditoriya qisqarishiga qaramay, shakllangan an’analardan kuchli tahririyat jamoasi mavjudligi telekanallarga ishonchning saqlanib qolishiga sabab bo’lyapti. Mana shu kuchli jihatlarni saqlab qolgan holda TVning onlayn platformalardagi sahifalarini yangilash, auditoriyaga mos axborotni joylash va tushunarli, sodda tarzda yetkazish orqali tomoshabinni televideniye qaytarish mumkin.

Tadqiqotlarga ko’ra, axborot dasturlari va sport musobaqalarining aksariyati televideniye orqali tomosha qilinmoqda. Telekanallar ijtimoiy tarmoq yoki messenjerlardagi sahifalari orqali shu kabi axborotni to’g’ridan to’g’ri efrga uzatish orqali auditoriyasini ko’paytirishga erishishi mumkin. Masalan, ijtimoiy tarmoqdagi foydalanuvchilarni qamrab olish maqsadida CNN Facebook orqali eng muhim dasturlarini real vaqt rejimida yoritib boradi.

Bundan tashqari, BBC 2030-yilga borib, tele va radioefirlarni tugatib, to’liq onlayn formatda ishlashga o’tishni rejalashtirgan.

Tok-shouda telekanallar o’z platformasini yaratishi orqali auditoriyani saqlab qolishi va kengaytirishi mumkinligi ta’kidlandi. Xorijning yetakchi telekanallari allaqachon mobil dasturlarini ishlab chiqqan. Masalan, VVS “BBC iPlayer” platformasi orqali auditoriyasini 15 foiz oshirishga muvaffaq bo’ldi.

Yoki yirik striming platformalarida o’zining eng mashhur va reytingi baland dasturlarini joylash orqali tomoshabinlar sonini ko’paytirish mumkin. 2023-yilda 87 foiz amerikalik striming servislaridan foydalangan. An’anaviy TV ulushi 10 foiz tushib ketgan. Tomoshabinlar onlayn formatga o’tar ekan, televideniye bugun o’z tarixini qayta yozishi kerak. Aks holda, o’zi tarixga aylanib qoladi.

AQSHning ABC, NBC va CBS telekanallari Hulu platformasi bilan hamkorlik qiladi va o’zining eng mashhur shoularini unga joylashtirib boradi. Bu orqali ular brend va efr jadvalini saqlab qolib, yoshlarni ko’proq o’ziga jalb qilish imkoniyatiga ega bo’ldi.

Bundan tashqari, auditoriyaning xohishini o’rganish, ular orasida doimiy so’rovnoma o’tkazish orqali ham telekanallar reytingini saqlab qolishga harakat qilmoqda. G’arb va MDHning ayrim davlatlari (Qozog’iston, Rossiya)da telekanallar tez-tez bu kabi so’rovnomalardan o’tkazib turadi.

Ba’zi holatlarda ushbu jarayonga maxsus sotsiologik markazlar ham jalb qilinishi mumkin.

SVT telekanali (Shvetsiya) tajribasialohida e’tiborga molik. 2017-yildan boshlab ushbu telekanal tomoshabinlar bilan kofe-breyklar tashkil qilib keladi. Mazkur uchrashuvlarda auditoriyaning TV dasturlariga munosabati o’rganiladi. Uchrashuvlar yakuni bo’yicha SVT yangi mediastrategiya ishlab chiqdi va transformatsiyani amalga oshirdi. Bu orqali aholining 20-39 yoshli toifasi orasida tomoshabinlar ko’payishiga erishildi.

Yangi davr yoki televideniye so’nggi sahifasi

Yana bir muhim nuqta — kontentga investitsiya kiritish. Sifatli telemahsulot katta mablag’ talab qiladi. Muvaffaqiyatli loyiha telekanal reytingini ko’tarishi bilan birga yaxshigina daromad ham olib keladi. Misol uchun, HBO telekanali mashhur “Taxtlar o’yini” seriali uchun 2 milliard dollar sarflagan. Bu telekanalga loyiha o’xirgi mavsumida qo’shimcha 19 million tomoshabin jalb qilishga yordam bergan. So’rovnomalarga ko’ra, striming servislar foydalanuvchilarining 85 foizi eksklyuziv kontent uchun pul to’lashga tayyor.

Maqolani yozish jarayonida xalqaro tajribalarga jiddiy e’tibor qaratdik. Masalan, Netflix dunyo bo’yicha kuniga 1 milliard soat video ko’riladigan yagona striming platforma. YouTube da esa har kuni 500 soatlik video yuklanadi, kuniga 5 milliard videorolik ko’riladi.

Hozir yoshlar televizor oldida o’tirib, efr vaqtini kutishni deyarli to’xtatgan. Masalan, 2024-yilda O’zbekistonda Instagram foydalanuvchilari soni 9,4 millionga yetdi. Bu aholining taxminan 27 foizi. Eng katta foydalanuvchilar guruhi 18-24 yoshlilar bo’lib, ular 41,4 foizni tashkil etadi.

TikTok ham shiddat bilan o’smoqda. 2025-yil boshida O’zbekistonda 18 yosh va undan katta foydalanuvchilar soni 2,57 millionga yetdi. Bu platformalar yoshlar uchun axborot va ko’ngilochar kontent manbai sifatida an’anaviy televideniye orqada qoldirmoqda.

2024-yil yakunidagi ma’lumotga ko’ra, O’zbekistonda Netflix foydalanuvchilari soni taxminan 301 ming atrofida. Bu raqam mamlakat aholisining 1 foizdan kamrog’ini tashkil etadi.

Bu raqamlar televideniye yoshlar orasidagi ahamiyati pasayib borayotganini ko’rsatadi. Yoshlar erkinlik, interaktivlik va istagan vaqtda kontentga yetib borish imkoniyatini qadrlaydi. Shundan kelib chiqib aytish mumkin, televideniye zamon talablariga moslashishi, raqamlashishi va yangi formatlarda kontent taqdim etishi zarur.

Zamon o’zgarimoqda. Yoshlar endi istagan vaqtda, istagan joyda axborot olishni, fikr bildirishni, dunyo bilan muloqot qilishni xohlayapti. Raqamli platformalar bu imkoniyatni beryapti. Televizorning afzalligi vaqt bilan bog’liq edi. Internet esa vaqtni ham, masofani ham yo’qqa chiqardi.

Tok-shoudan chiqargan xulosamiz shu bo’ldi: televideniye umuman yo’qolib ketmaydi. U hamon ko’pchilikning xotirasi, qadriyatlar oynasi. Lekin agar zamon talabiga moslashmasa, bu ko’zguda yoshlar o’zini ko’rmay qo’yadi. Shuning uchun mediamaydonda endi kurash emas, hamkorlik kerak — telekanallar va raqamli platformalar birgalikda axborot sifati, tarbiya va milliy qadriyatlariga xizmat qilishni o’rganishi zarur.

Chunki internet va smartfonlardan foydalanayotgan yoshlar — ertangi jamiyatimiz. Ular qaysi platformani tanlashidan qat’i nazar, haqiqiy, sog’lom va foydali axborotga ega bo’lishi shart. Bu — bizdan, kattalardan, media sohasi va jamiyatdan talab qilinadigan jiddiy mas’uliyat.

